

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK: 360*

**INATULLAYEV BAHROMJON BOQIJONOVICH**

**O‘ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARI FAOLIYATIDA  
JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR TEXNOLOGIYASI**

5 A 610402 –Ijtimoiy madaniy faoliyat reklamasi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

sotsiologiya fanlari doktori,

professor M. B. Bekmurodov

**Toshkent – 2013**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
---------------------	---

### I. BOB. JAMOATCHILIK BILAN ALQALAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarining nazariy asoslari .....	12
1.2. Siyosiy partiyalar g‘oyaviy targ‘iboti samaradorligini oshirishda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining imkoniyatlari.....	28

### II. BOB. SIYOSIY PARTIYALARNING JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARI YO‘NALISHLARI.

2.1. Siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llashda partiya bosma nashrlari va saytlarining o‘rni. ....	37
2.2. Partiya fraksiyalarining qonun ijodkorligida qatnashuvi va uni jamoatchilikka yetkazish usullari. ....	42

### III. BOB. SIYOSIY PARTIYALARI FAOLIYATIDA AXBOROT- MAFKURA MASALASI VA JAMOATCHILIK BILAN ALQALAR TEXNOLOGIYASINI ISTIQBOLLARI

3.1. Siyosiy partiyalar faoliyatida islohotlar davrida axborot va mafkura masalalari.....	65
3.2. Siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyasini qo‘llash istiqbollari .....	71
<b>Xulosa</b> .....	78
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b> .....	82

## Kirish

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Bugungi kunda O`zbekiston kuchli fuqorolik jamiyati qurish yo`lidan borar ekan, bu sharoitda jamiyat hayotida tub islohotlar o`tkazish va modernizatsiyalash kundalik ehtiyojga aylanadi. Kishilik jamiyati tarixida va hayotida rivojlangan «Axborot texnologiyalari asri» sifatida kirib kelgan XXI-asr mamlakatlar, xalqlar va insonlar hayotida, tarixida o`zining o`lkan o`zgarishi va yangilanishi bilan juda katta tarixiy rol` o`ynadi. Insoniyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga turli texnologiyalarni kirib kelishi bilan harakterlanmoqda. Jumladan, O`zbekiston Respublikasida ham ushbu voqe`likdan chetda qolmagan holda islohotlar jarayoniga jadallik bilan kirib bormoqda. Zero, bugun jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb masala “...mamlakatimizni modernizatsiya qilish va erkinlashtirishni, siyosiy huquqiy va iqtisodiy tizimni demokratik yangilashni, yurtimizda fuqorolik jamiyatini shakllantirishni davom ettirishdir.”<sup>1</sup> Bu jarayonda albatta ijtimoiylashuv instituti sifatida siyosiy partiyalarning ham o`z o`rni bor.

O`zbekistonda demokratik jamiyat asoslari mustahkamlanib borgani sari yangi yangi milliy islohotlarga tayanish, ularni zamonaviy mazmun-mohiyat bilan boyitish va rivojlantirishga bo`lgan ehtiyoj har qachongidan ham kuchaymoqda. Bu -fuqarolarning xohish-irodasi, maqsad va intilishlari, adolatli, erkin, demokratik jamiyat barpo etish to`g`risidagi orzu-umidlarini ro`yobga chiqarish bilan uzviy bog`liq bo`lgan zarurat va vazifadir. Ushbu vazifa millatning ko`p ming yillik davlatchilik tarixi an`analariga suyangan holda amalda ro`yobga chiqariladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bu xususida shunday deydi: «Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo`lidan og`ishmay, izchil va qat`iyat bilan borishdir»<sup>2</sup> – deb belgilab bergan vazifasidir. Shuningdek, jamiyatni demokratlashtirish va mamlakatni

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda nutqi.// O`zbekiston ovozi, 2010 yil 1 sentyabr.

modernizatsiya qilish bugungi kun zamon talablari va munozaralaridan biri bo`lib qolmoqda. Zero, mamlakatni tubdan isloh qilish va yangilash jarayoni eng avvalo, millat ongi va tafakkurini, intellektual bilim doirasini shakllantirish bilan bir qatorda jamiyatning barcha sohalarini jumladan, xalq xujaligining barcha tarmoqlarini, mamlakat iqtisodiyotini va iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy asoslarga asoslangan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini takomillashtirish va yuksaltirishni ko`zda tutadi. Ushbu jarayon mamlakatimiz taraqqiyotining yanada yuksalishiga va xalq hayotining tobora faravonlashuviga olib keladi. Biz erishgan ulkan marralarning eng muhimi eski tizimdan butunlay voz echib, mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish yo`lidan dadil borayotganimiz va bu jarayonning hech qachon ortga qaytmaydigan qat`iy va izchil tus olganligidir<sup>1</sup>.

Shuningdek, O`zbekiston siyosiy partiyalar faoliyatida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo`llashni tadqiq etishning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi.

Birinchidan, O`zbekistonda yuz berayotgan demokratik yangilanishlar inson omiliga yangicha munosabatni shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Islom Karimov tomonidan «barcha islohotlarimizning bosh yo`nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezoni»<sup>2</sup>ning ustuvor vazifa sifatida ko`rsatilishi davr talablariga hamohang bo`ldi.

Ikkinchidan, O`zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalar faoliyatining tub mohiyatini odamlarga tushuntirish, ularning bu faoliyatini qo`llab-quvvatlashlariga erishish, vujudga kelgan muammolarni hal qilishda jamoatchilikning fikriga tayanish, aholining manfaat va istaklarini o`rganish asosida qarorlar qabul qilishda maxsus texnologiyalardan foydalanishga ehtiyoj tobora ortmoqda. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari aynan shu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Zero, «Jamoatchilik bilan aloqalar» - boshqaruvning demokratik usuli

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo`lini izchil davom ettirish- taraqqiyotimizning muhim omilidir.// Ishonch. 2010-yil 8-dekabr.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l – demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. – T.: O`zbekiston, 2003. T.11. – B. 32..

bo'lib, boshqaruv tuzilmalarining jamiyat manfaatlariga xizmat qilishiga, amalga oshirilayotgan islohotlarga jamoatchilikni safarbar qilishga, davlat bilan xalq o'rtasida muloqot o'rnatib, fuqarolarda davlat siyosatiga moyillik uyg'otishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, global axborotlashuv sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilishda axborot omili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, globallashtirish yangi muammolarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda «jahonda demokratiyani olg'a siljitish»ga urinishlar, ayrim kuchlar tomonidan inson dunyoqarashini boshqarish, kishilarda «zamonaviy» fe'l-atvor va qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan harakatlar, dunyo xalqlarini o'ziga xos tarzda g'arblashtirishga intilish kuzatilmoqda.

To'rtinchidan, bugungi kunda siyosiy partiyalarning demokratik muhitdagi o'zaro sog'lom raqobatini ta'minlash va o'z elektaratini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatlarida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyasini qo'llanishi va uning amalga oshirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni, g'oyaviy targ'ibotni ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan samarali vosita va texnologiyalar asosida tashkil etishni shartlab qo'yadi.

Beshinchidan, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari fuqarolar ongiga demokratik qadriyatlarni samarali singdirishga, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qilishini ham alohida ta'kidlash zarur.

Demokratik islohotlarning hozirgi bosqichida fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish, ularning siyosiy faolligini oshirish, kishilar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash ustuvorlik kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «demokratlashtirish yo'lidan sobit qadam rivojlanishning keyingi rejalarini aniqlab olish, ularni xalqqa tushunarli va yaqin mazmun bilan boyitish»<sup>1</sup> ehtiyoji tufayli hokimiyat idoralari faoliyatining «shaffof»ligini ta'minlovchi texnologiyalarga va ularni ilmiy jihatdan tadqiq etishga talab ortib boradi. Nihoyat, turli ilmiy tadqiqotlar doirasida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari aynan siyosiy partiyalar faoliyatidagi o'rni alohida

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari. - T.: Sharq, 1998. – B. 70.

o'rganilmagan, shuningdek, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash siyosiy fanlar nuqtai nazaridan o'rganilgan, biroq uning ijtimoiy ahamiyati O'zbekiston siyosiy partiyalari misolida tahlili etilmagan. O'zbekiston Respublikasida bugungi demokratik jamiyat qurish jarayonida siyosiy partiyalar muhim sub'ekt hisoblanar ekan, ular faoliyatida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini o'rganish bu boradagi islohotlarni yanada samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi.** O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalarning jamoatchilik bilan aloqalari bilan bog'liq faoliyati tadqiqot ob'ektini tashkil etib, jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarining strukturaviy-funksional tuzilishi, huquqiy asoslari, siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo'llash mexanizmlari va vositalari esa tadqiqotni predmetini tashkil etadi.

**Tadqiqot ishining maqsad va vazifalari.** Mazkur tadqiqot ishining maqsadi O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo'llashning ahamiyatini tahlil etishdan iborat. Bu maqsadga erishishi uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarining nazariy asoslarini tahlil etish;
- siyosiy partiyalar g'oyaviy targ'iboti samaradorligini oshirishda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining imkoniyatlarini yoritish;
- siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo'llashda partiya saytlari va bosma nashrlarining o'rnini tadqiq etish;
- partiya fraksiyalarining qonun ijodkorligida qatnashuvi va uni jamoatchilikka yetkazish usullarini tahlil etish;
- siyosiy partiyalar faoliyatida islohotlar davrida axborot va mafkura masalalarini yoritish;

- siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyasini qo‘llash istiqbollari belgilash.

### **Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.**

- jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarining nazariy asoslarini tahlili;
- siyosiy partiyalar g‘oyaviy targ‘iboti samaradorligini oshirishda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining imkoniyatlari;
- siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llashda partiya saytlari va bosma nashrlarining o‘rni;
- partiya fraksiyalarining qonun ijodkorligida qatnashuvi va uni jamoatchilikka yetkazish usullari;
- siyosiy partiyalar faoliyatida islohotlar davrida axborot va mafkura masalalari;
- siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyasini qo‘llash istiqbollari.

Tadqiqotning farazlari esa siyosiy partiya faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llanilishida siyosiy partiya faoliyati bilan bog‘liq axborotlar oqimini jamiyat a‘zolariga yo‘naltirish bilan bir qatorda, ularning siyosiy madaniyatini oshirish sub’ekti sifatidagi o‘rnidan iborat.

**Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llash masalasi qator ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan. Bu borada xorijlik olimlardan D.Xeld, L.Xarvud, A.Chaylds, S.Mak-Dugall, J.Dyui, V.Shramm<sup>1</sup> hamda MDH mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilar -

---

<sup>1</sup> Held D. Political Theory and the modern state. Essays on state, Power and democracy. – Stanford (Cal): Univ.press, 1989. – P. 236; Harwood L., Childs A. An Introduction to Public Oppinion. – New York: John Wiley and sons, 1940. – P. 458; MacDougall C.D. Understanding Public Oppinion. – New York: 1952. – P. 445; Dewey John. The Public and its Problems. - New York. 1927; Shramm Wilbur. The nature of communication between

Yu.Nisnevich, R.Abdeev, A.Migranyanlarning<sup>1</sup> asarlaridan o‘rin olgan. Respublikamizning ko‘zga ko‘ringan olimlari M.Sharifxo‘jayev, R.Jumayev, E.Halilov, M.Qirg‘izboev, S.Jo‘rayev, N.Abdudzizova, B.To‘rayev, J.Abdullayev, N.Shodiyev va boshqalarning asarlari, monografiya, ilmiy maqolalarida<sup>2</sup> O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va demokratik davlatni qaror toptirishning o‘ziga xos xususiyatlari, jamiyatni demokratlashtirishda axborot omilining o‘rni, global axborotlashuv sharoitida ommaviy axborot vositalarining vazifalari kabi dolzarb masalalarga alohida e‘tibor berilgan. Tanlangan mavzuning g‘oyaviy-mafkuraviy muammolarni hal qilish, odamlar ongiga g‘oyaviy ta‘sir o‘tkazish bilan bog‘liq jihatlari ikkinchi turkum manbalarda yoritilgan. K.Mangeym, I.Xayvud, P.Teylor, G.Lassuel<sup>3</sup>, A.Tuzikov, V.Kovalenko, A.Kostinlarning<sup>4</sup> asarlarini mazkur manbalar qatoriga kiritish mumkin. Bu mualliflarning asarlarida mafkuradan ko‘zlangan maqsadlar, g‘oyaviy kurash, targ‘ibot-tashviqotning zamonaviy va samarali usullari nazariy tahlil qilingan. Respublikamiz olimlaridan A.Azizxo‘jayev, Sh.Paxrutdinov, N.Komilov, A.Erkayev, D.Alimova, X.Do‘stmammedov, N.Umarova O‘.Nosirov, T.Alimardonov, A.Ochildiyev, M.Quronov, X.Tojjiyev, I.Ergashev, X.Xudoyberdiyev, A.Qahramonov<sup>5</sup> va boshqa tadqiqotchilar o‘z izlanishlarida

---

humans // Process of effects of mass communication. - London: Urbana, 1971. - P. 312-334.

<sup>1</sup> Нисневич Ю.А. Информация и власть. - М.: Интер-пресс, 2000; Абдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации. - М.: МГУ, 1994; Миграция А. Гражданское общество // Опыт словаря нового мышления. - М.: 50/50, 1989.

<sup>2</sup> Sharifxo‘jayev M. Formirovanie otkrytogo grajdanskogo obshchestva v Uzbekistane. - T.: Mir ekonomiki i prava, 2002; Jumaev R. Politicheskaya sistema Respubliki Uzbekistan: stanovlenie i razvitie. - T.: Sharq, 1995; Halilov E. Fuqarolik murojaati va demokratik islohotlar // Jamiyat va boshqaruv. - T.: 1998. - № 1; Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. - T.: Sharq, 1998; Jo‘raev S. Fuqarolik jamiyati tarixiga bir nazar. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. - T.: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2003; Abdudzizova N. Ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish // Jamiyat va boshqaruv. - T.: 2005, - № 2; To‘raev B., Abdullaev J. Ommaviy axborot vositalari: fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti sifatida // O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish: muammolar va yechimlar: Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - T.: TDYuI, 2004; Shodiev N. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari // Fuqarolik jamiyati. - T.: 2004. - №1.

<sup>3</sup> Mannheim K. Ideologie und utopie. - Bonn: Verlag von Friedrich Cohen, 1929; Haywood E. Political ideologies: An introduction. - London: Basingtoca, VacMillan, 1992; Taylor P. Munitions of the Mind. The history of the Propaganda from the ancient world to the present day. - New York: Manchester, 1995.

<sup>4</sup> Тузиков А. Масс медиа: идеология видимая и невидимая // ПолИС. - М.: 2002, - № 2; Коваленко В.И., Костин А.И. Политические идеологии: история и современность // Вестник Московского Университета. - М.: Политические науки. 2002. - № 2.

<sup>5</sup> Azizxo‘jayev A. Diniy ekstremizm – mafkuralar kurashi // Jamiyat va boshqaruv. - T.: 1998. - № 3; Paxrutdinov Sh. Tahdid – halokatli kuch. - T.: Akademiya, 2001; Komilov N. Milliy mafkura zarurati // Jamiyat va boshqaruv. - T.: 1998. - № 3; Erkaev A. Milliy g‘oya mohiyati. - T.: Ma‘naviyat, 2000; Alimova D. Insoniyat tarixi g‘oya va

dunyoning mafkuraviy manzarasi, globallashuv va mafkuraviy siyosat, milliy g‘oyani targ‘ib qilishning uslubiy jihatlari, mafkuraviy xurujlar va ularga qarshi kurash mexanizmlari, insonlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalarida izlanish olib borganlar. Va nihoyat, uchinchi turkum adabiyotlarga bevosita «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalariga oid manbalarni kiritish mumkin. E'tiborlisi shundaki, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari rivojlanib borishi bilan siyosiy fanda yangi ilmiy yo‘nalish - «Piarologiya» vujudga keldi. Jahon olimlaridan U.Lippman, Yu.Xabermas, P.Lazarsfeld, X.Gaudet, U.Shvarstau, A.Li, S.Blek, A.Senter, P.Jekson, S.Katlip<sup>1</sup>, V.Uorren, F.Jeffkins, D.Uotss, L.Mazur, S.Oliver, F.Buari va boshqalarning tadqiqotlari aynan shu fan doirasida amalga oshirildi<sup>2</sup>.

«Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining MDH davlatlarida ham keng yoyilishi qator olimlarning e'tiborini o‘ziga jalb etdi. V.Korolko, G.Pochepsov, A.Chumikov, L.Nevzlin, N.Komarovskiy<sup>3</sup> kabi olimlar «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini davlat boshqaruvida qo‘llash

---

mafkuralar tarixidir. T.: Ijod dunyosi, 2002; Do‘stmuhammedov X. Axborot taxdidi serqirra muammo // Xuquq va burch. - T.: 2006. - № 1; Umarova N. Globallashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurash. - T.: «Akademiya», 2005; Umarova N. Mafkura targ‘iboti // Tafakkur. -T.: 2001. - № 3; Umarova N. Terror ortidagi terror // Jamiyat va boshqaruv. -T.: 2001. - № 3; Nosirov O‘. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishidir. - T.: O‘zbekiston, 1998; Alimardonov T. Mafkura va ijtimoiy axloq uyg‘unligi // Tarix, mustaqillik va milliy g‘oya: Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. - T.: Akademiya, 2000; Ochiliev A. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. - T.: Ijod dunyosi, 2002; Quronov M. Mafkura, ta’sirchanlik va uslub. - T.: Ma’naviyat, 2000; Tojiev X. Milliy mafkuraning nazariy va metodologik masalalari. - T.: Mehnat, 1999; Ergashev I. Milliy g‘oya va fuqarolik jamiyati. - T.: Akademiya, 2005; Ergashev I., Xudoyberdiyev X., Qahramonov A. O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. - T.: Ijod dunyosi, 2002..

<sup>1</sup> Lippmann W. Public opinion. - New York: 1960; Habermas J. The Theory of communicative action. - London: 1984; Lazarsfeld P., Gaudet H. The people’s choice. New York: «Bpress», 1944; Schwartz W. Introduction to information warfare // War in information age. New challenges for U.S. security policy. - Washington – London: 1997; Lee I. Publicity. - New York: 1925; Black S. Introduction to Public Relations. – London: 1989; Black S. Essentials of Public Relations. - London: 1994; Center A., Jackson P. Public Relations practices. Managerial Case studies and problems. - New Jersey: Englewood Cliffs, 1990; Cutlip S.M., Center A.H. Effective Public Relations. - New Jersey: Englewood Cliffs, 1994;

<sup>2</sup> Grunig J. Excellence in Public Relations and Communication Management. – London: Lawrence Erlbaum Associates, 1992; Warren W. The mathematics of communication // Communication and culture: Reading in the codes of human interaction. Ed. By Alfred G. Smith. - New York: 1966; Durand J. Les formes de la Communication. – Paris: 1981; Jeffkins F. Public Relations. - London. 1994; Watts D. Political communication Today. – London: Manchester etc, 1997; White J., Mazur L. Strategic communication management. Making Public Relations work. - London: Workingham, 1997. Оливер С. Стратегия в публич рилейшнз. /пер. с англ. под ред А.Н.Адреевой. – СПб. ИД Нева, 2003; Филипп А.Буари. Паблик рилейшнз или стратегия доверия. - М.: Имидж-Контакт, Инфра-М, 2001.

<sup>3</sup> Королько В. Основы публич рилейшнз. – Киев: «Ваклер», 2001; Почепцов Г. Паблик рилейшнз для профессионалов. - М.: Рефл-бук, Ваклер, 1999; Чумиков А. Паблик рилейшнз - связи с общественностью. - М.: Дело, 2000; Л.Б. «Паблик рилейшнз» - кому это нужно? - М.: Экономика, 1997; Связи с общественностью в политике и государственном управлении / Под общ.ред. В.С Комаровского. - М.: РАГС, 2001.

sohasida ilmiy izlanish olib bordilar. Ta'kidlash joizki, respublikamiz olimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar faoliyatida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash masalasi yaxlit tarzda maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, qator asarlar, monografiya va ilmiy maqolalar ushbu texnologiyalarning ayrim jihatlarini yoritishda qo'l keladi. Bu manbalarda O'zbekistonda fuqarolarning davlat idoralari bilan muloqotini tashkil etish, jamoatchilik fikriga ta'sir etish, axborot orqali ta'sir ko'rsatish masalalariga alohida e'tibor berilgan. Mamlakatimiz olimlaridan F.Mo'minov, N.G'afforov, M.al-Buxoriy, E.Sultanova, M.Bekmurodov, O.Atamirzaev, N.Umarova, K.G'afurov, U. Islombekov, U.Qoraboyev<sup>1</sup> va boshqalarning asarlarini ana shunday manbalar qatoriga kiritish mumkin.

**Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari:** Mavzuni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalar va ular faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo'llash mazmun-mohiyati, usul va vositalari bo'yicha qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon etilgan fikrlar va O'zbekistonlik va xorijlik olimlarning mavzuga oid adabiyotlarda ilgari surilgan qarashlari nazariy va metodologik asosi bo'lib xizmat qildi.

**Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.** Ishda ilmiy bilishning ob'ektivlik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish kabi metodlarga tayanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:** Mazkur tadqiqot ishining nazariy ahamiyati shundan iboratki, siyosiy partiyalar faoliyatida mafkura

---

<sup>1</sup>Mўминов Ф. Паблик рилейшнз: история и теория. - Т.: Ижод дунёси, 2004; G'afforov N. Jamoatchilik bilan ishlash - rablik rileyshnz. - Т.: Zar qalam, 2004; Ал-Бухари М. Общественные отношения и международный информационный обмен. - Т.: ТашГИВ, 2001; Ал-Бухари М. Проблемы международного обмена информацией в условиях современных международных отношениях. - Т.: ТашГИВ, 2004; Sultanova E. Siyosiy marketing asoslari. O'quv qo'llanma. - Т.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2001; Bekmurodov M. O'zbekistonda jamoatchilik fikri. - Т.: Fan, 1999; Bekmurodov M. Movaraunaxrda jamoatchilik fikri - Т.: Fan, 1994; Атамирзаев А. Общественное мнение – барометр гражданского общества // Фуқаролик жамияти. – Т.: 2004. - № 1; Umarova N., Islombekov U. Milliy g'oya targ'ibotining ta'sirchanligini oshirishda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish. - Т.: Akademiya, 2005; G'afurov K. Public Relatoins - munosabatlar texnologiyasi // Jamiyat va boshqaruv. –Т.: 1998. - № 3; Islombekov U.I. Siyosatda «jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) mavzusidagi siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi.-Toshkent. 2007., Qoraboev U. Imij va imijeologiya // Jamiyat va boshqaruv. –Т.: 1999. № 1-2.

va g'oyaviy targ'iboti, siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq nazariyalarni rivojlantirishda foydalanishdan iborat. Tadqiqot natijalarida ishlab chiqilgan tavsiya va xulosalardan amaliy tarzda siyosiy partiyalar faoliyatida elektaratni shakllantirish, saylovlar jarayoniga tayyorgarlik ko'rish va jamiyat hayotiga chuqurroq kirib borishda, shuningdek, mavzuga doir o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishda foydalanish mumkin.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo'llashga doir qarashlar keltirilgan;

Siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga qo'yishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan;

O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalarining internet saytlari va bosma nashrlari muayyan turkumlangan holda tahlil etilgan;

O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo'llash istiqbollari belgilab berilgan.

**Ishning sinovdan o'tishi (aprobatsiyasi).** Magistrlik dissertatsiyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish kafedrasida bajarilgan va kafedraning 2013 yil 17 maydagi yig'ilishida muhokama etilgan. (2013 yil, 17 may. Bayonnoma № ).

**Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 88 betni tashkil etadi.

## **I. BOB. JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI**

### **1.1. Jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarining nazariy asoslari**

Bugungi axborot glaballashuvi sharoitida jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarini samaraliligini ta'minlash yangidan yangi texnologiyalarni qo'llashni zamon talabi darajasiga ko'tardi. Ana shundan zamon talabining qondiruvchi vosita "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyalari davlat bilan fuqarolar muloqotini, aniqrog'i, ular o'rtasidagi axborot almashinuvini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi usul, uslub va vositalar yig'indisidir. Bu texnologiyalar davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etib, muammolarni hal qilish jarayonida davlat va jamiyat o'rtasida faol muloqotni ta'minlash, mavjud muammoga nisbatan jamoatchilik fikrini o'rganish asosida faoliyat yuritish, davlat organlari va davlat xizmatchilariga nisbatan jamoatchilikda ijobiy munosabat shakllantirish, fuqarolarni turli begona mafkuralarning zararli ta'siridan himoyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda qo'l keladi. XXI-asrda insoniyat o'z taraqqiyotida sifat jihatidan yangi pallaga qadam qo'ydi. Yangicha fikrlash, zamon talablariga moslashish va hamkorlikni yangicha asosda qurish bu davrning asosiy talabiga aylandi. Bunday sharoitda ertangi kun haqida qayg'uradigan har bir kishi hayotdan orqada qolmaslikka, zamon bilan hamnafas harakat qilishga majbur bo'ladi. Shu bois, dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o'zlashtirishning yangi usullari, jumladan, uni texnologiyalashtirish ham keng urf bo'ldi. Aslida, «texnologiya» - yunoncha «techne» (san'at, mahorat, uddalash) hamda «logos» (ta'limot) so'zlarining birikmasidan iborat bo'lib<sup>1</sup>, eng samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash hamda amaliyotda qo'llashni nazarda tutadi. Texnologiyalar belgilangan natijaga erishish imkonini beruvchi faoliyat shakllari, vosita, usul, andoza, qoida va me'yorlari tizimi ekan, texnologiyalashtirish jarayonini faqatgina ishlab chiqarish sohasi bilan bog'lash noto'g'ri bo'lar edi. Fanga ham Amaliy vazifalar

---

<sup>1</sup> Политология. Словарь-справочник./ под ред. .М.А.Василик, М.С.Вершинина.-М.:Гардарики, 2001.-С. 287.

yuklatilganidan so‘ng texnologiyalar qo‘llaniladigan sohalar ko‘paydi, ijtimoiy jarayonlarga ham texnologiyalashtirish ob'ekti sifatida qaraldi. Natijada, texnologiyalar boshqaruv madaniyatining ajralmas qismiga, insoniyat taraqqiyotining o‘ziga xos ko‘rsatkichiga aylandi. Shu tariqa jamiyat taraqqiyoti sur'atlarini jadallashtirish, kishilarning moddiy, ma'naviy va aqliy salohiyatini jamiyat rivoji sari yo‘naltirish imkonini beruvchi yangi texnologiyalar – sotsial texnologiyalar keng tarqaldi. Olimlar sotsial texnologiyalar jamiyatni boshqarish bilan chambarchas bog‘liqligini uqtiradilar. Aniqrog‘i, ular «jamiyat taraqqiyotining ob'yektiv qonunlarini inson faoliyatini rag‘batlantiruvchi qarorlar, me'yorlar va ko‘rsatmalarga aylantiradi»<sup>1</sup>. Ilmiy adabiyotlarda boshqaruv texnologiyalari, pedagogik, axborot texnologiyalari, intellektual texnologiyalar keng tavsiflangan. Masalan, axborot texnologiyalari axborot ishlab chiqish va uni uzatish tizimini samarali tashkil etish usullaridir. Axborot texnologiyalari bizni qurshab turgan dunyo haqida, insonlararo munosabatlar, jamiyatdagi rivojlanish jarayonlari to‘g‘risida ma'lumot berishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar axborot oqimlarining maqbul miqdori, ahamiyati, mazmunini belgilab beradi hamda ularning haqqoniyligi, xolisligi, aniqligi, ilmiy asoslanganligi, tezkorligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Siyosiy texnologiyalar siyosiy muammolarni hal qilish, siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirish uslublarini qamrab oladi. Bu texnologiyalar shaxsning siyosiy madaniyatini yuksaltirish bilan bir qatorda, siyosatchilarning kasb malakasi, mahoratini oshirishga ham xizmat qiladi.

Insonlararo muloqot, davlat va aholi o‘rtasidagi axborot almashinuvi, bir so‘z bilan aytganda, kommunikativ jarayonni samarali tashkil etishning bugungi kunda keng tarqalgan hamda qator olimlar tomonidan samarali usul sifatida baholangan texnologiyalaridan biri «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridir.<sup>2</sup> Insoniyat tarixidan ma'lumki, taraqqiyotni ta'minlovchi eng muhim omillardan biri barqarorlikdir. Ta'kidlash joizki, barqarorlik ko‘p jihatdan

<sup>1</sup> Афанасьев В.Г. Общество: системность, познание, управление. - М.: Политиздат, 1993. - С. 369.

<sup>2</sup> Islombekov U.I. Siyosatda «jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari (O‘zbekiston Respublikasi misolida) mavzusidagi siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi.- Toshkent. 2007. –B. 22

hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi, hokimiyat bilan jamiyat o'rtasidagi hamda jamiyat hayotining turli sohalaridagi insonlararo munosabatlarga bevosita bog'liq. E'tiborlisi shundaki, ijtimoiy munosabatlarning barchasi, birinchi navbatda, muloqotga, o'zaro axborot almashinuviga asoslanadi. Shu bois, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi, barqarorlik negizi hisoblangan insonlararo muloqot, axborot omili hamisha olimlar diqqat markazida bo'lgan. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning birinchi navbatda axborot almashinuviga asoslanishi T.Parsonsning «O'zaro ta'sirdagi tizimlarda axborot harakati» va Yu.Xabermasning «Ijtimoiy faoliyat» konsepsiyalari orqali isbotlangan. T.Parsonsning fikricha, axborot harakati muhim ijtimoiy jarayon bo'lib, bu jarayon jamiyat taraqqiyoti va barqarorligi bilan uzviy bog'liqdir. Olimning fikricha, o'zaro ta'sirdagi tizimlar o'rtasidagi axborot almashinuvi ijtimoiy jarayonlarning katalizatori vazifasini o'taydi. Tizimlararo va tizim ichidagi munosabatlar axborot almashinuvi shaklida kechadi hamda ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi<sup>1</sup>.

Ijtimoiy jarayonlarni tushunishda Yu.Xabermasning konsepsiyasi ham alohida e'tiborga molik. U jamiyatga insonlar o'zaro ta'sirining hosilasi sifatida qaraydi. Uning «Ijtimoiy faoliyat» nazariyasi aynan shu fikrdan kelib chiqadi. Bu nazariyasi bilan Yu.Xabermas inson faolliyatini to'rtga - strategik harakat, me'yoriy harakat, dramaturgik harakat va kommunikativ harakatga<sup>2</sup> ajratadi. Olim strategik faoliyat insonning o'z shaxsiy maqsadlariga erishishga qaratilgan faoliyat ekanligini uqtiradi. Maqsadga erishish uchun tanlangan yo'l bu faoliyatning samarasini belgilab beradi. Yu.Xabermas tomonidan «me'yoriy faoliyat» deb ajratilgan modelga ko'ra, inson faoliyatining maqsadi boshqalar bilan o'zaro manfaatli va o'zaro foydali vaziyatlarni yuzaga keltirish hisoblanadi. Bu maqsadga hokimiyat idoralari, tashkilotlar, insonlarning xatti-harakatlarini jamiyatda mavjud qadriyatlar va me'yorlarga bo'ysundirish orqali erishiladi.

Xabermas konsepsiyasiga ko'ra, insonning dramaturgik faoliyatidan ko'zlangan maqsad o'zi haqida atrofda gilar da yaxshi taassurot qoldirishdir.

<sup>1</sup> Связи с общественностью в политике и государственном управлении / Под общ.ред. В.С Комаровского. - М.: РАГС, 2001. - С. 27-28.

<sup>2</sup> Habermas J. The Theory of Communicative Action. - L: 1984. - P.150.

Kommunikativ faoliyat esa Yu.Xabermas konsepsiyasida markaziy o‘rinni egallab, insonlarning o‘zaro muloqotini, insonlarning muayyan natijalarga erishish yo‘lidagi kelishuvini nazarda tutadi. Kelishuv aynan o‘zaro muloqotga kirishuvchi tuzilmalar tomonidan ta‘minlanadi<sup>1</sup>. Shunday qilib, Yu.Xabermasning ijtimoiy faoliyat haqidagi nazariyasi ijtimoiy munosabatlar tizimi amal qilishini tushunishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Asosiysi, bu nazariya jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni ko‘rish, ularni tushunish imkonini beradi. Shunday qilib, jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi muloqot inson manfaatlarini qondirishga, boshqa kishilarga, turli guruhlariga ta‘sir ko‘rsatishga, jamiyat yaxlitligini ta‘minlashga qaratilgan tizimdir. Bunday muloqotlar jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borgan bo‘lsa, axborot omili jamiyatning yaratuvchanlik salohiyatini belgilab beradi.

Axborot ijtimoiy taraqqiyot yo‘lida hokimiyat va inson, iqtisodiy institutlar va iste‘molchi, jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Demak, axborot almashinuviga asoslangan ijtimoiy munosabatlar bir qator muhim vazifalarni amalga oshiradi.

Birinchidan, jamiyat a‘zolari faoliyatini ta‘minlash. Ma‘lumki, jamiyat yaxlit «organizm» bo‘lib, undagi hech bir ijtimoiy tizim o‘z faoliyatini boshqa tizimlardan mustaqil ravishda amalga oshira olmaydi. Ana shu o‘ziga xos bog‘liqlik bu tizimlarning o‘zaro axborot almashinuvini shartlab qo‘yadi. U.Barkli «Sotsiologiya va zamonaviy tizimlar nazariyasi» kitobida yozishicha, har qanday ijtimoiy tizim axborot almashinuvini sharofati bilan amal qiladi. Tizimlar o‘rtasidagi axborot oqimlari esa ijtimoiy harakatlarga to‘siq bo‘lishi ham, bu munosabatlarni tezlashtiruvchi va kuchaytiruvchi katalizator xizmatini o‘tashi ham mumkin.

Hech bir ijtimoiy tizim axborot almashinuvisiz faoliyat yurita olmaydi. Bunda axborotlar oqimi tartibsiz ko‘rinishga ega bo‘lmay, balki maorif, din, targ‘ibot, reklama, ommaviy madaniyat kabi muvofiqlashtirilgan shakllarda namoyon bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Habermas J. Legitimation Crisis. - Boston. 1975. - P. 203.

Ikkinchidan, siyosiy, iqtisodiy va boshqa raqobatli kurashni vujudga keltirish. Ma'lumki, sog'lom raqobat jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omil sanaladi. Axborot almashinuvi esa, raqobatni harakatga keltiruvchi kuch bo'lib, turli siyosiy institutlar, jamiyatdagi manfaatdor guruhlar, tadbirkorlik sub'ektlari insonlarga axborot tarqatish, ularga ta'sir ko'rsatish bilangina bu raqobatga bardosh bera olishlari mumkin.

Uchinchidan, inson kamolotiga xizmat qilish. Ma'lumki, inson ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, o'zi yashab turgan jamiyatda amal qiluvchi madaniy qadriyatlarga tayanishga, axloqiy va boshqa me'yorlarga amal qilishga majbur bo'ladi. Boshqacha aytganda, jamiyat bilan munosabatga kirishish davomida inson shu jamiyatga xos madaniyatni o'zlashtirib boradi.

Bu esa bevosita axborot orqali sodir bo'lib, insonni o'rab turgan muhit – oila, ta'lim tizimi, jamiyat a'zolaridan keladigan axborot unga ijtimoiy qadriyatlarni, me'yorlarni, ijtimoiy-madaniy andozalarni tashuvchi vositaga aylanadi. Axborot tufayli inson jamiyat uchun maqbul shaxsga aylanib boradi.

To'rtinchidan, shaxsga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy nazoratni ta'minlash. Axborotning jamiyat hayotida muhim o'rin egallashining yana bir sababi uning shaxsga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bilan bog'liqdir. Ya'ni, inson tarbiya orqali, ta'lim tizimida, oiladagi munosabatlar, ommaviy axborot vositalari, targ'ibot tufayli atrofdagilarning ta'sirida bo'ladi, bu ta'sir uning shaxs sifatida shakllanib borishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, inson faoliyatini yo'naltirish, bu faoliyatning ijtimoiy me'yorlarga muvofiqligini nazorat qilish ham aynan axborot orqali amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

Ijtimoiy munosabatlarni o'rganishda taniqli faylasuf E.To'fflarning nazariyasi e'tiborga molik. Olimning fikricha, bugungi kundagi zamonaviy jamiyatlar axborotlashgan jamiyatga aylanib bormoqda. Bu jarayonda yangi muhit, yangi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, yangicha turmush tarzi va jamiyatni

---

<sup>1</sup> Islombekov U.I. Siyosatda «jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) mavzusidagi siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi.- Toshkent. 2007.-B. 25

boshqarishdagi yangi tamoyillarning qaror topishini kuzatish mumkin. E.To'fflarga ko'ra, bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarni harakatlantiruvchi kuch ham o'zgarimoqda. Ya'ni, insonning dolzarb muammolariga samarali javob qaytarish imkonini beruvchi axborot texnologiyalari, axborot muhiti ana shunday kuch sifatida maydonga chiqimoqda. Bunday o'zgarishlar siyosiy yetakchilarning yangi avlodini shakllantirib, hokimiyatga yangicha sifat baxsh etmoqda. Ya'ni, hokimiyat tobora insonga ta'sir ko'rsatishning «madaniy» usullariga tayanishga majbur bo'lmoqda<sup>1</sup>. Agar o'tgan asrlarda hokimiyat jamiyat bilan o'zaro munosabatlarda asosan kuchga tayangan bo'lsa, hozirda kuch o'rnini insonga ta'sir ko'rsatish madaniyati egallamoqda. Insonga axborot orqali ta'sir ko'rsatish siyosiy jarayonlarda belgilovchi rol o'ynamoqda. Shunday qilib, XXI asrda har qanday hokimiyatning qudrati undagi kuch ishlatuvchi apparatning salohiyati yoki moddiy boyliklari bilan belgilanmay, balki kishilarga ta'sir ko'rsatish madaniyatining darajasiga bog'liq bo'lmoqda.

Zamonaviy voqyelik davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar ham aynan axborotga asoslanishi zarurligini talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakat taraqqiyotini izdan chiqaruvchi beqarorlik, inqiloblarning sabablari haqida to'xtalar ekan, hukumat bilan aholi o'rtasidagi muloqotning ahamiyatiga alohida urg'u beradi. «Hukumatning aholi bilan aloqasi qanchalik mustahkam ekani, ular o'rtasidagi muloqotning mavjud yoki yo'qligi, g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Eng yomoni hokimiyat bilan xalqning munosabati kar bilan soqovning «so'zlashuvini» eslatadigan holatdir. Bunday vaziyat mas'uliyatni zimmasiga olgan hokimiyat bilan uni saylagan xalq o'rtasida vujudga kelmasligi kerak»<sup>2</sup>, deb ta'kidlaydi Prezident.

Demak, axborot almashinuvi ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Shunday ekan, axborot almashinuvi jarayonini tartibga solish, boshqarish va samarali tashkil etish jarayonlari texnologiyalashtirish ob'ektiga aylanishi muqarrar. Tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan «Jamoatchilik bilan aloqalar»

---

<sup>1</sup> Тоффлер Э. Метаморфозы власти. - М.: Издательство АСТ, 2004. - С. 22.

<sup>2</sup> Karimov I.A.Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi.-T.:O'zbekiston, 2005.-B.11.

texnologiyalari ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladigan vosita sifatida yuzaga kelgan. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari jahon mamlakatlarida «Public Relations» (qisqacha – «PR», «PR») deb nomlanib, turli davlatlarda boshqaruv jarayoniga keng joriy etilgan. Mazkur texnologiyalar ko‘plab olimlarning, tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb etib, siyosiy fanda ularning turli ta’riflarini kuzatish mumkin. Masalan, siyosatshunoslik bo‘yicha maxsus ilmiy lug‘atda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari davlat organlari va boshqa turdagi tashkilotlarning insonlar, ijtimoiy guruhlar, korxonalar bilan o‘zaro ishonch muhitini yaratishga yo‘naltirilgan faoliyat<sup>1</sup> sifatida ta’riflanadi. Boshqa adabiyotda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalariga tashkilot, korxonalar, davlat muassasalari haqida kishilarda ijobiy tasavvur tug‘dirish, ularning faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida jamoatchilik fikrini shakllantirish, jamiyat manfaatlari yo‘lida davlat boshqaruvi organlari hamda jamoat tashkilotlari, fuqarolar o‘rtasida muloqot o‘rnatish san’ati sifatida yondashiladi. Agar olimlar tomonidan «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalariga berilgan ta’riflar va yondashuvlarga nazar tashlansa, ular o‘rtasidagi qator umumiy o‘xshashlik va farqlarni ko‘rish mumkin. Masalan, mazkur sohada maxsus tadqiqot olib borgan olim G.Pochepsov «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalariga «muayyan tuzilma yoki muassasa hamda jamoatchilik o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish maqsadida shu tuzilmadan chiqayotgan axborot oqimlarini nazorat qilishga yo‘naltirilgan faoliyat»<sup>2</sup>, deb ta’rif beradi. Olimning fikricha, har qanday tuzilma samarali faoliyat yuritishi uchun o‘z xodimlari bilan bir qatorda minglab kishilarning, jamoatchilikning ham shu tuzilmaga munosabatlari, fikrlari bilan hisoblashishga majburdir.

Bundan tashqari, rossiyalik olim I.Solovyov «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari axborot texnologiyalarining alohida turi ekanligini uqtirib, ularga «muayyan siyosiy maqsadni amalga oshirishda axborotni qabul qilib oluvchini

---

<sup>1</sup> Политология: энциклопедический словарь /общ.ред. и сост.: Ю.И.Аверьянов. - М.: Изд-во. Моск. коммерч. Ун-та, 1993. – С. 236.

<sup>2</sup> Почепцов Г.Г. Паблик рилейшнз для профессионалов. - М.: Рефл-бук, Ваклер, 1999. Б. 11-12.

hurmat qilgan holda axborot-tahliliy faoliyat yuritish»<sup>1</sup>, deya ta'rif beradi. I.Solovyov ushbu texnologiyalar axborot yetkazuvchi va qabul qilib oluvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilishini uqtiradi. Olim «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining haqqoniy axborot tarqatishga asoslanishi mavjud muammolarni keng jamoatchilik o'rtasida erkin muhokama qilish, fuqarolarda muassasa haqida ijobiy tasavvur uyg'otishga xizmat qilishini uqtiradi. Bundan tashqari, I.Solovyov «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining bir qator tamoyillarga - axborotning xolisligi va oshkoraligi; o'zaro munosabatlarda kommunikatorning ham, retsipientning ham manfaatlarini hisobga olish; jamoatchilik fikriga tayanib faoliyat yuritish, jamoatchilik fikrini hurmat qilishga asoslanishini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, axborot yetkazish faoliyatining bunday tashkil etilishida axborot uzatuvchi tomon – davlat idorasi axborot qabul qilib oluvchi taraf

- fuqaroga axborotning iste'molchisi sifatidagina emas, balki o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan shaxs sifatida murojaat qiladi. O'tgan asrning 30-yillarida AQShning Yel Universiteti professori X.Chaylds «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalariga oid muhim konsepsiyani ilgari surdi. Olimning xulosasiga ko'ra, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining ahamiyati uning axborot oqimini boshqarish, insonda muayyan hodisaga nisbatan ijobiy munosabatni uyg'otish yoki o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratish san'ati ekanligida emas. Bu texnologiyalarning eng asosiy vazifasi shundaki, ular muassasaning, davlat idorasining faoliyatini jamiyat manfaatlariga moslashtirib boradi<sup>2</sup>. Shu tariqa «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari boshqaruvni doimiy ravishda takomillashtirib borishga xizmat qiladi. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining mohiyatini tushunishda uning vazifalari ifodalangan ta'riflar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohaning nazariyotchilaridan hisoblangan J.Marson «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining

<sup>1</sup> Соловьёв А. Политология, политическая теория, политические технологии. - М.: Аспект Пресс, 2000. – С.517.

<sup>2</sup> Harwood L.Childs. An Introduction to Public Oppinion. - NY.: John Wiley and sons, 1940. – P. 13.

mohiyatini ushbu texnologiyaning asosiy to‘rt vazifasi orqali ochib berishga harakat qiladi. Bular:

- «Tadqiqot: vaziyatni tahlil qilish va amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarni belgilab olish.
- Harakat: bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarning dasturi va jadvalini ishlab chiqish.
- Muloqot: dasturni amalga oshirish.
- Baholash: natijalarni o‘rganish va zaruriy o‘zgartishlar kiritish».

Bu ta'rif «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining o‘ziga xos modelini ifodalab, unda mazkur texnologiyalarning vazifalariga, aniqrog‘i ushbu texnologiyani qo‘llashning asosiy texnologik bosqichlariga e'tibor berilgan.

Fransiyadagi «Jamoatchilik bilan aloqalar» va ilg‘or texnologiyalar Oliy instituti professori F.Buari «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining jamoatchilik fikriga katta ta'sir ko‘rsatishini izohlar ekan, uni «ishonch qozonish strategiyasi», deb ataydi. Olimning fikricha, jamoatchilik bilan aloqalar ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos «kesishish nuqtasi»da amal qiladi va jamiyat a'zolarining birdamligini ta'minlashga xizmat qiladi<sup>1</sup>. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining nazariy asoslarini o‘rganishda mazkur texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida tuzilgan tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan qarashlarni ham ko‘rib chiqish o‘rinli. Masalan, Britaniya jamoatchilik fikrini o‘rganish instituti «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini «maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan, aniq ketma-ketlik asosida amalga oshiriladigan faoliyat» sifatida talqin etadi. Mazkur faoliyatdan ko‘zlangan asosiy maqsad - muayyan muassasa va aholi o‘rtasida o‘zaro tushunish muhitini qaror toptirishdir<sup>2</sup>. 1975 yilda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini tadqiq etish va o‘rganish Jang‘armasi» tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalariga berilgan 472 xil ta'rif tahlil etilib, quyidagi yaxlit ta'rif ishlab chiqilgan: «Jamoatchilik bilan aloqalar - boshqaruvning alohida

<sup>1</sup>Буари Ф. Паблик рилейшнз или стратегия доверия. - М.: Имидж-Контакт, Инфра-М, 2001. - С. 25-26.

<sup>2</sup> Аги У., Кэмерон Г., Олт Ф., Уилкоккс Д. Самое главное в PR / Пер.с англ. - СПб.: Питер, 2004. - С. 29.

vazifasi bo'lib, turli muammolarni hal qilish jarayonida davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni ta'minlash negizida o'zaro hamkorlik muhitini yaratish; jamoatchilikning mavjud muammoga nisbatan fikrini o'rganish va shu asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish; amalga oshirilayotgan islohotlarga jamoatchilikni safarbar qilish; jamiyatda vujudga keladigan nohush holatlardan ogoh qilish orqali ularning oldini olishga xizmat qiladi. Jamoatchilik bilan aloqalar faoliyati qonuniy, ochiq, samimiy, axloqiy me'yorlarga mos keladigan muloqotlar negizida amalga oshiriladi». 1978 yilda o'ttizdan ortiq mamlakatning «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari bilan shug'ullanuvchi muassasa vakillari ishtirok etgan Mexiko anjumanida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari - jamiyatda vujudga keladigan holatlarni va uning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, amalga oshirilayotgan islohotlarni hayotga tadbiiq etishda jamoatchilik va tashkilot (davlat) manfaatlariga birdek xizmat qiluvchi san'at va ijtimoiy fan sifatida baholandi.

1999 yilda yevropa Ittifoqining maxsus komissiyasi yevropalik olimlarning fikrlarini jamlab, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini jamoatchilikka davlat tomonidan axborot yetkazish, bu axborotning fuqarolar tomonidan qabul qilinishi uchun uni to'g'ri talqin qilish, jamoatchilikka yetkazilgan axborotlar qanday qabul qilingani va qanday tushunilgani haqida axborot olish jarayoni sifatida talqin etadi.

Yuqorida keltirilgan ta'rif va yondashuvlarda takrorlanayotgan ayrim urg'ularga alohida e'tibor qaratish «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining mohiyatini kengroq ochib berishga xizmat qiladi. Ta'riflar ichida eng ko'p qo'llanilayotgan so'z birligi «maqsadga yo'naltirilganlik»dir. Darhaqiqat, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari muayyan maqsad yo'lida qo'llaniladi. Bu maqsadlar qisqa yoki uzoq muddatga mo'ljallangan, jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan, samarali muloqotni tashkil etishga xizmat qiladigan, axborot yig'ish yoki tarqatishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Islombekov U.I. Siyosatda «jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) mavzusidagi siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi. -Toshkent. 2007.-B. 31.

«Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari tabiatini izohlashda olimlar uning «aniq reja asosida, muayyan ketma-ketlikda» amalga oshirilishiga ham urg'u beradilar. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining aynan texnologik jarayon ekanligining birinchi belgisi ham pala-partishlik va tartibsiz harakatlarni inkor etib, aniqreja va ketma-ketlikka tayanishidir. Ya'ni, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari mavjud muammolarni hal qilishga xizmat qilar ekan, bu texnologiyalar muayyan mantiqiy izchillikka ega bo'lmog'i talab etildi. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarida «tomonlar manfaati bilan hisoblashish» omili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyalar asosida muloqotni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad muloqotga kirishuvchi tomonlarning o'zaro hamkorligini ta'minlash ekan, taraflarning manfaatlari bilan hisoblashish, o'zaro teng munosabatlar tamoyiliga tayanish talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarda ko'p uchraydigan atamalardan Yana biri «ikki tomonlama muloqot» bo'lib, bu atama «Jamoatchilik Bilan aloqalar» texnologiyalarining bir taraflama axborot uzatishdan ko'ra ancha murakkab tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, «Jamoatchilik Bilan aloqalar» texnologiyalari faqat axborot tarqatish bilan cheklanmay, balki aholidan keladigan javob reaksiyalarini o'rganishga, qaytma aloqani samarali yo'lga qo'yishga ham xizmat qiladi. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari ilmiy tadqiqotlar ob'ekti sifatida o'rganilar ekan, ularga «boshqaruvning alohida vazifasi» sifatining nisbat berilishi ko'plab olimlarning e'tiborini tortgan. Gap shundaki, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari boshqaruvni amalga oshirish, qarorlar qabul qilish va uni ijro etish bilan bog'liq kompleks jarayonning tarkibiy qismi sifatida qo'llanilganidagina Samara berishi mumkin. Bunda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari qabul qilingan qarorlarning mohiyatini aholiga tushuntirish Bilan cheklanmay, qarorning qabul qilinishi uchun zarurat-ehtiyojni o'rganish, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish, qaror qabul qilinishiga jamoatchilik fikrini tayyorlash kabi vazifalarni ham amalga oshiradi. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining mohiyatini

tushunishda «maqsadga yo'naltirilganlik», «aniq reja asosida, muayyan ketma-ketlikda», «tomonlar manfaati bilan hisoblashish», «ikki tomonlama muloqot», «boshqaruvning alohida vazifasi» kabi kalit so'zlarga e'tibor qaratish lozim. Zero ushbu so'zlar «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining tarkibiy qismlarini ifodalab, uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shu o'rinda «Jamoatchilik bilan aloqalar» atamasida ishlatilayotgan «jamoatchilik» so'zi nima ma'noda qo'llanilayotganini aniqlash joiz. «Jamoatchilik» tushunchasi mazmun-mohiyatining bir qancha talqinlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Vaziyat yondashuvga ko'ra, «jamoatchilik» deganda muayyan vaziyat taqozosi bilan umumiy manfaatlar, qarashlar ostida birlashgan kishilar guruhi tushuniladi. Vaziyat yondashuv ilk bor J.Dyui tomonidan qo'llanilgan. U «Jamoatchilik va uning muammolari» asarida «Jamoatchilik - muayyan vaqtda umumiy muammo oldida turgan hamda bu muammoni bartaraf etishga birgalikda kirishgan kishilardan iborat faol uyushma»<sup>1</sup> ekanini uqtiradi. Keyinchalik J.Gruning bunday yondashuvni yanada chuqurlashtiradi. U «umumiy muammo oldida turgan» insonlar guruhini o'zaro muloqot tufayli «jamoatchilik»ka aylantirishi mumkin bo'lgan omillarga to'xtalib o'tadi. Birinchi omil – muammoni anglash. Bu omil insonlarning muayyan vaziyatda muammoni anglashlariga turtki bo'lib, ularning axborotga bo'lgan ehtiyojini uyg'otadi. Ikkinchi omil – cheklovlarni anglash. Bu omil tufayli kishilar vaziyat tashqi omillarga qay darajada bog'liqligini tushunadi.

Ular o'zlarida mavjud axborot yordamidagina muammoli vaziyatni bartaraf etishga kirisha oladilar. Uchinchi omil – muammoga jalb qilinganlik darajasi. Ushbu omil insonlarga muammoli vaziyatni his qilish imkonini berib, ularning muammoni hal qilishga qay darajada jalb qilinganliklarini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, insonlarning muammoga qay darajada jalb etilganligi ularning axborotga bo'lgan qiziqishini belgilab beradi<sup>2</sup>. Boshqa bir olim J.Gendriks «jamoatchilik» atamasiga aniqlik kiritib, bu tushunchaning tarkibiy qismi sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: 1) mamlakat fuqarolari, mahalliy aholi; 2)

<sup>1</sup> Связи с общественностью в политике и государственном управлении / Под общ.ред. В.С Комаровского. - М.: РАГС, 2001. – С. 46.

<sup>2</sup> Dewey John. The Public and its Problems. - N.Y.: 1927. - P.15-17.

ommaviy axborot vositalari; 3) muassasa, davlat idorasi tarkibidagi hodimlar; 4) investorlar; 5) davlat organlari; 6) iste'molchilar; 7) fikr yetakchilari (tashkilot rahbarlari, turli guruh yetakchilari)<sup>1</sup>.

Demografik yondashuvda jamoatchilikka muloqot ob'ekti sifatida qaralib, u yashash joyiga, yoshiga, jinsiga ko'ra turkumlanadi. Psixografik yondashuv esa birmuncha murakkabroq bo'lib, unga ko'ra, insonlar ruhiy holati, siyosiy kayfiyatlari, qadriyatlari tizimi, fe'l-atvori, yashash tarziga ko'ra turkumlarga ajratiladi. Jamoatchilikning qiziqishlari, manfaatlari, e'tiqodiga ko'ra turkumlanishi «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llashda muhim ahamiyat kasb etib, davlat bilan fuqaro o'rtasida samarali muloqot o'rnatishga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ko'pgina mualliflar tomonidan «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari turlicha baholangan, sharhlangan bo'lsa-da, ushbu texnologiyalarning siyosiy partiya faoliyatida qo'llanilishiga doir quyidagi yaxlit ta'rifni ilgari surish mumkin: «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari siyosiy partiya larning jamiyat a'zolariga yanada qinroq bo'lishi, g'oyaviy targ'ibotini samaradorligini ta'minlovchi vositalar yig'indisidir. Bunda davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhitini yaratish mazkur texnologiyalarning negizini tashkil etadi.

Bundan tashqari, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari qo'llanishi davlat faoliyati to'g'risida fuqarolarga axborot yetkazish; siyosiy jarayonlarda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash; siyosatchilar va davlat dasturlarining fuqarolar tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga erishish; davlat tuzilmalari haqida ijobiy tasavvur shakllantirish kabi vazifalarni amalga oshirishga ham xizmat qiladi. Umuman, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari axborot yetkazuvchining maqsadlarini o'zida namoyon etsa-da, bu axborotlarni kishilar ongiga «tiqishtirmay», balki axborot yetkazishning jozibador usullari bilan kishilar e'tiborini jalb qiladi. Ta'kidlash joizki, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari davlat boshqaruvida XX asrda qo'llana boshlagan bo'lsa-da, ularning tarixi uzoq ming yilliklarga borib taqaladi. Tarixchilar davlat va fuqarolar

---

<sup>1</sup> Королько В. Основы публичных отношений. - Киев.: Ваклер, 2001. С. 136.

o'rtasidagi muloqotning tarixiy ko'rinishlaridan biri sifatida podsho Xammurapining mamlakatdagi qonunlarni baland tosh ustunga o'yib yozdirgani va bu ustunni shaharning markaziga o'rnatganini e'tirof etadilar.

Davlat hokimiyati haqida mushohada qilgan qadimgi Yunon faylasuflari o'z asarlarida davlat bilan xalq o'rtasida kelishuvga erishish, manfaatlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash masalalariga to'xtalغانlar. Jumladan, Aristotel «Siyosat» asarida davlatning vazifalari bilan insonning tabiiy xususiyati bo'lgan muloqot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi. Mazkur kitobida Aristotel: «Har qanday davlat o'ziga xos muloqotdir. Eng muhim muloqot ko'proq ezgulikka intiladi va boshqa muloqotlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu muloqot davlat deb nomlanadi»<sup>1</sup>, deb yozadi. Qadimgi yunon faylasuflaridan Platon asarlarida esa jamoatchilik e'tiborini qozonish masalalarini uchratish mumkin. Platonning ta'kidicha:

«Kishilarning e'tiborini tortish san'atdir. Buning uchun ularga ko'rish ne'matini ato etish shart emas. Bu ne'mat ularda mavjud. Faqat inson kerakli tomonga emas, boshqa tomonga qaraydi. Uning e'tiborini kerakli tomonga jalb qilish uchun esa ko'p mehnat qilish lozim».<sup>2</sup> Davlat boshqaruvida jamoatchilik fikrining ahamiyati haqidagi qarashlarni Sharq mutafakkirlari asarlarida ham ko'plab uchratish mumkin. Xususan, Nizomulmulkning «Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk» asarining «Sohibxabar va jarchilar va ularning ish-tadbirlari haqida»gi bobida podshohni raiyat ahvolidan, kishilarning saltanatga bo'lgan munosabatlaridan doimiy xabardor qilib turuvchi mas'ul kishilar tayinlanishi lozimligi uqtiriladi. Nizomulmulk: «Podshohga raiyat va lashkar ahvolidan to'la xabardor bo'lish va ularga qancha xarajat ketishini bilish vojibdir. Agarda shunday bo'lmasa, katta xato bo'ladi. Omillar sitamkorlikka qo'l uradilar va mamlakatda sodir bo'layotgan fasod va zolimlikdan podshohning yo xabari bor, yo yo'q, deyдилar. Agarda bila turib ma'n qilmasa, unda u ham shularga o'xshab zolimlik qilgan va o'zi zulmu sitamga rozilik bergan bo'ladi va agarda bilmasa, demak, u

<sup>1</sup> Аристотель. Политика. Афинская полиция: Предислов. Е.И.Темнова. - М.: Мысль, 1997. С. 87.

<sup>2</sup> Платон. Диалоги: пер с древнегреч. /Худож.-оформитель Б.Ф. Бублик, - Харьков: Фолио, 1999. - С. 260-261.

g'ofildir. Shunday ekan, sohibxabarga ehtiyoj seziladi»<sup>1</sup>, deb ta'kidlaydi. Bu Bilan Nizomulmulk «xabardor bo'lish»ni islom dinida farz amalidan keyingi o'rinda turuvchi vojib amal ekanligini uqtiradi. Buyuk sarkarda Amir Temur esa: «Tajribamdan o'tmishkim, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortiga yashiringan» bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengashu-tadbir istab fikrlarini bilmoq lozimdir. Har vaqt kengashchilar yig'ilib, majlis ochilar ekan, yaxshi- yomondan, foyda-ziyondan, oldimizdagi ishlarni qilish-qilmaslikdan so'z ochib, ulardan fikr so'rar edim. Bularning fikrlarini eshitgach, har ikki tomonni mulohaza qilib, foyda-ziyonlarni ko'ngilga keltirar edim»<sup>2</sup>, deb ta'kidlaydi. Demak, davlat boshqaruvini samarali tashkil etishda jamoatchilik bilan doimiy muloqot qilish, fuqarolarning davlat haqidagi fikrlarini doimiy kuzatib borish, qabul qilingan siyosiy qarorlardan jamoatchilikni doimiy xabardor qilib turish, ular bilan aloqa o'rnatishda ikki taraflama hamkorlik muhitini yaratish barcha zamonlarda dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Shunday qilib, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining zamonaviy talqinlari mohiyati va xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– jamiyatda birdamlik, o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratish  
“Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarining negizini tashkil etadi;

– “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari alohida guruhlar, yaxlit jamiyatdagi kishilar ongi va jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi;

– “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari - jamoatchilik Bilan doimiy muloqotni tashkil etish maqsadida ma'lumot va dalillar to'plash, ularni tahlil qilish, axborotni kishilarga ta'sirchan tarzda yetkazish kabi vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat turidir;

– “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari faqatgina tashqi muhit bilan muloqot o'rnatish bilan cheklanmay, balki muassasa, davlat organlari xodimlarining o'zaro yaqin aloqalarini ta'minlashga xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk. - T.: Adolat, 1997. B. 69-70.

<sup>2</sup> Temur tuzuklari: forschadan A.Sog'uniy va H.Karomatov tarj. So'zboshi va izohlar B.Ahmedovniki. -T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. - B. 15.

Umuman, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari siyosiy partiyalar faoliyatining asosiy negizini tashkil etib, jamiyat a'zolarining qarashlari, fikrlari, qadriyatlari va manfaatlarini o'zida aks ettiradi hamda partiya tashkilotlari va xalq o'rtasida uyg'unlikni ta'minlashga, hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar fuqarolarga o'z vaqtida axborot yetkazish, jamoatchilik fikrlariga, kayfiyatlariga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.<sup>1</sup> Jamiyatda yuz berayotgan jadal o'zgarishlar, taraqqiyot sur'ati har bir insonning iqtidori va salohiyatini jamiyat rivojiga yo'naltirishga undamoqda. Boz ustiga, sobiq sho'rolar tuzumida insonga singdirilgan qadriyatlarning hozirgi kunda ham kishilarning hayotiy tamoyillariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani sezilmoqda. Xolbuki, insonning ma'naviy, ruhiy holati, undagi loqaydlik va boqimandalik kayfiyati islohotlarning sifati hamda sur'atlarida aks etmay qolmaydi. Shunday ekan, inson omili bilan hisoblashmasdan turib, jamiyatni taraqqiy ettirib bo'lmazligi Ayni haqiqatdir. Demak, jamiyat taraqqiyoti sur'atlarini jadallashtirish, kishilarning moddiy, ma'naviy, aqliy salohiyatini jamiyat rivoji sari yo'naltirish uchun asosiy va muhim resurs - insoniy resursdan, ya'ni jamiyatdagi har bir insonning imkoniyatidan to'laqonli, oqilona hamda samarali foydalanish talab etiladi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining tub burilish bosqichlarida, demokratik islohotlar davrida bu masala alohida dolzarblik kasb etadi. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari aynan inson resurslaridan jamiyat taraqqiyoti yo'lida samarali foydalanish imkonini beradi. Zero, insonparvarlikning ustuvorligi, insonga eng oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lish bu texnologiyalarni qo'llashdagi metin qoidadir.

## **1.2. Siyosiy partiyalar g'oyaviy targ'iboti samaradorligini oshirishda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining imkoniyatlari**

O'zbekiston Respublikasida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari haqida so'z ketganida muhim siyosiy institut bo'lmish siyosiy partiyalar faoliyatida bu texnologiyalardan oqilona foydalanish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Avvalo, siyosiy partiyalar ijtimoiy

---

<sup>1</sup>Islombekov U.I. Siyosatda «jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) mavzusidagi siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi.- Toshkent. 2007.-B. 38.

qatlam va guruhlarning maqsadlari, manfaat va g'oyalarini ifodalash; saylovlar vositasida hokimiyatni shakllantirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy ong va siyosiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilish; fuqarolarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish, o'z vakillari vositasida parlament va hukumatga ta'sir ko'rsatish, mamlakat taraqqiyotining muqobil dasturlarini ilgari surish kabi turli vazifalarni bajaradi.

Ikkinchidan, siyosiy partiyalarning asosiy maqsadi hokimiyat uchun kurash bo'lib, buning uchun aholining qo'llab-quvvatlashiga erishish muhim sanaladi. Bu holat siyosiy partiyalardan aholi bilan doimiy muloqotda bo'lishni, o'z tarafdorlari va xayrixohlari safini muntazam kengaytirib borishni talab etadi. Siyosatshunos olim M.Qirg'izboevning ta'kidlashicha: «Partiyalar fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ilg'ab, ularning o'zaro o'xshash manfaatlarini birlashtirib, ularning har bir oila va mahalla hududida «sochilib» yotgan tabiiy siyosiy harakatlarini partiyaviy doiraga jamlab, o'z a'zolari va xayrixohlarini siyosiy jarayonlarga safarbar etuvchi, shuningdek, fuqarolarni bu jarayonlarda faol ishtirok etishga yanada kengroq undash uchun ularni rag'batlantirish, «ko'nglini ko'tarish», intilishlarining doimiyligini ta'minlash vositasidir»<sup>1</sup>.

Uchinchidan, bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar haqida gap ketganida, ular o'rtasidagi raqobatning sustligi, ularning aholi bilan kam muloqot qilishi masalasi ko'ndalang bo'ladi. Bu haqda tadqiqotchi Sh.Qudratxo'jaev shunday yozadi: «Partiyalar omma bilan ishlashning ilg'or texnologiyalarini o'zlashtirishlari va shu orqali o'z saflarini imkon qadar kengaytirib borishga intilishlari lozim. Ochig'ini aytish kerakki, mamlakatimiz fuqarolari siyosiy partiyalar haqida faqat saylovlardan oldin ma'lumotga ega bo'ladilar. Aniqrog'i, ular haqidagi axborotni eshitadilar. Vaholanki, siyosiy partiyalar nafaqat saylovlar chog'ida, balki o'zining kundalik faoliyati davomida fuqarolar bilan, a'zolari bilan muloqotda bo'lishlari lozim»<sup>2</sup>.

<sup>1</sup>Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. - T.: Yangi asr avlodi, 2006. –B. 11.

<sup>2</sup>Qudratxo'jayev Sh.T. O'zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari: 23.00.02 – «Siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar» ixtisosligi bo'yicha siyosiy fanlar nomzodi darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T.: DJQA. 2004. – B. 124.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari siyosiy partiyalar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, ularning partiyaviy raqobat, hokimiyat uchun kurash va fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish borasidagi vazifalarini yengillashtiradi. Ta'kidlash joizki, siyosiy partiyalar faoliyatida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish ikki jihatdan – saylovoldi kurashida va asosiysi, dasturiy vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy partiyalar tomonidan saylovlar davrida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish qator xususiyatlarga e'tibor qaratishni talab etadi. Birinchidan, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash kishilarning elektoral fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganishdan boshlanadi. Kishilarni muayyan harakatlar qilishga undovchi omillar «motivatsiya» deb atalib, elektoral fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar - elektoral motivatsiyalarni, ya'ni kishilarning muayyan nomzod yoki siyosiy partiya ovoz berishiga turtki bo'ladigan omillarni o'rganish birinchi galdagi vazifa sanaladi. Odatda, insonlarning elektoral fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi ikki omil alohida ajratib ko'rsatiladi: a) yetakchiga ergashishga bo'lgan ehtiyoj, nomzod orqali o'z maqsadlari, ehtiyojlari va talablarini amalga oshira olishiga ishonch, o'zining iqtisodiy, ijtimoiy ahvolini yaxshilashga intilish; b) guruhga ergashish, o'zini muayyan guruh a'zosi sifatida idrok etish. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining vazifasi ana shu asosiy omillarni e'tiborga olgan holda nomzodning, siyosiy partiyaning saylovda g'alaba qozonishini ta'minlashdan iborat. Ikkinchidan, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari siyosiy kurashlarda to'plangan amaliy tajriba va ilmiy asoslangan bilimlar uyg'unligiga asoslanadi. «Saylovoldi kurashida, - deb yozadi A.Solovyov, - sinovdan o'tgan usullarni qo'llay bilishdan tashqari, konkret texnologiyalar natijasida qozonilgan g'alaba yoki mag'lubiyatning asl sabablarini ham o'rganish muhim o'rin tutadi. Chunki jamoatchilikning fikrini zaruriy o'zanga yo'naltira olishlari uchun kampaniya tashkilotchilari sharoitni to'g'ri baholab, kishilar ongi va kayfiyatlaridagi «og'riqli nuqtalar»ga ta'sir o'tkaza olishlari

lozim»<sup>1</sup>. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: saylovoldi tadqiqotlarini olib borishda «Jamoatchilik bilan aloqalar» dan qanday foydalanish mumkin? Saylovlardan avval okrugdagi ahvolni har tomonlama o‘rganish – bu jarayonning birinchi bosqichi hisoblanadi. Bu davrda okrug (aholi soni, aholining etnik va ijtimoiy tuzilishi, asosiy diniy birlashmalar, qishloq xo‘jaligi va sanoat tizimi, yirik korxonalar va moliyaviy muassasalar, ta‘lim muassasalari, o‘rta va kichik biznes va h.k) va uning aholisi (qiziqishlari, qadriyatlarini, manfaatlari, qanday nomzodni ma‘qul ko‘rishi va h.k) haqida tegishli ma‘lumotlar yig‘iladi. To‘plangan axborotni chuqur tahlil qilish asosida saylovoldi kampaniyasining strategiyasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqich – boshlangan saylov kampaniyasini axborot bilan ta‘minlash bilan bog‘liq. Har qanday boshqaruv sub‘ekti o‘z faoliyatining qanchalik samarali ekanligini bilish uchun qilinayotgan ishlar kishilarga qanchalik ta‘sir ko‘rsatayotgani haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim. Bu saylovoldi kurashini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Saylov kampaniyasini tahliliy axborot bilan ta‘minlash natijasida ikki tomonlama, bir tomondan – nomzod, ikkinchi tomondan – saylovchilar o‘rtasida o‘ziga xos muloqot o‘rnatiladi. Bu muloqot sub‘ektga o‘z harakatlarini tartibga keltirishda, paydo bo‘lgan muammolarni zudlik bilan hal qilishda qo‘l keladi. Saylov kampaniyasining tashkilotchilari uchun muhim axborotlar turli yo‘llar bilan olinishi mumkin – okrugdagi iqtisodiy o‘shish, aholining demografik tarkibi, turmush darajasi, ilgari bo‘lib o‘tgan saylov natijalari, statistik hujjatlarni o‘rganish yo‘li bilan; aholi o‘rtasida sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish yo‘li bilan; fokus-guruhlar yordamida; raqiblarning harakatlarini kuzatish va ularning chiqishlarini kontent tahlil qilish yordamida axborot to‘planadi. Bularning barchasi saylov kampaniyasini to‘g‘ri tashkil etish, siyosiy texnologiyalardan oqilona foydalanish imkonini beradi.«Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo‘llashdagi muhim bosqich – axborotni qabul qilib oluvchi maqsadli guruhlarini ajratib olish saylov kampaniyalari davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, elektorat besh asosiy guruhga ajratiladi:

---

<sup>1</sup> Соловьёв А. Политология, политическая теория, политические технологии.-М.:Аспект-Пресс,2000.-С.401.

a) faol qo‘llab-quvvatlovchilar – bu guruh a'zolari qator sabablar

Bu guruhlar nomzod tomonidan qo‘llanilgan shiorlar, nutqlar, reklama roliklari va nomzodning keyingi harakatlari haqidagi baxs yuritadilar, o‘zlarining fikrlarini bildiradilar. Bu fikrlardan xulosa qilinib, foydalanilgan vositalar keng jamoatchilikka qanday ta'sir qilishi mumkinligi aniqlanadi.

(qadriyatlar, fikrlarning mos kelishi va h.k) tufayli nomzod va uning jamoasi bilan faol hamkorlik qiladilar, ularning harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydilar. Bu guruhga mansub kishilar nima bo‘lganida ham «o‘zining» nomzodi yoki partiyasiga ovoz beradilar va boshqalarni ham shunga da'vat qiladilar;

b) passiv qo‘llab-quvvatlovchilar – bu guruhdagilar o‘zlarini nomzodga, saylov birlashmasiga xayrixoh deb biladilar, lekin hech bir amaliy yordam ko‘rsatmaydilar. Bu guruh saylovlarda «o‘z nomzod»lariga ovoz berishlari mumkin. Passiv qo‘llab-quvvatlovchilarni bu harakatlarga, odatda, siyosatga umuman aloqasi bo‘lmagan omillar (nomzodning oilaviy ahvoli, ish joyi) undaydi;

v) mo‘tadil pozitsiyadagilar – bunday kishilar nomzod yoki partiya haqida kam ma'lumotga ega bo‘lganliklari sabab nomzodning dasturiy maqsadlarini yaxshi bilmaydilar. Ularning nomzodga nisbatan aniq pozitsiyalari bo‘lmaydi. Bunday kishilarning saylovda ishtirok etish- etmasligini ham oldindan bilib bo‘lmaydi;

g) ishonchsizlik kayfiyatidagi kishilar – elektoratning bu qatlami, odatda, boshqa partiya va nomzodlarni ma'qul ko‘radilar yoki nomzodlarning hech biri mamlakatdagi, viloyatdagi muammolarni hal qila olishiga ishonmaydilar. Shu narsa aniqki, ular avvaldan tanlagan nomzodlariga ovoz beradilar yoki atayin saylovda ishtirok etmaydilar;

d) qat'iy qarshi kayfiyatdagilar- bu guruhni boshqa partiya a'zolari va ularning faol tarafdorlari tashkil qiladi. Bu guruhdagilar «o‘zining» nomzodiga ovoz berish bilan birga, boshqa nomzodlar, saylovoldi kampaniyasi tashkilotchilariga nisbatan raqobat kayfiyatini namoyon qiladilar.

Uchinchidan, majoritar saylov tizimi shakllangan mamlakatlarda nomzod saylov kampaniyasida asosiy o‘rinni egallaydi. Demak, saylovchilarning nomzod haqidagi fikrlari, tasavvurlari unga ovoz berish yoki bermaslik uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, siyosiy partiyalar tomonidan «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo‘llashdan ko‘zlangan yana bir maqsad ushbu partiya tomonidan vakillik organiga nomzod qilib ko‘rsatilayotgan shaxs haqida saylovchilarda ijobiy tasavvur tug‘dirishdir. Bunday tasavvur, bir so‘z bilan aytganda, «imij» deb yuritiladi. Ta’kidlash joizki, imij, ya’ni insonlarning muayyan shaxs, guruh, partiya, tashkilot haqidagi tasavvurlari faqat saylovlar davridagina ahamiyatli bo‘lmay, balki turli partiyalar, jamoat tashkilotlari, hattokidavlatlar va xalqaro tashkilotlar ham imij haqida qayg‘urishga majbur bo‘ladilar.

Imidj siyosat sub'ektlarining ta'sirchanligini oshirishga, jamoatchilik fikrini shakllantirishga, tarafdorlarni ko‘paytirish va boshqa turli maqsadlarga xizmat qiladi. «Imij» so‘zi aslida lotincha «image», ya’ni, ko‘rinish, qiyofa, obraz so‘zidan olingan bo‘lib, kishilarning muayyan hodisa, shaxs, tashkilot, davlat haqidagi tasavvurlari yig‘indisidir. Professor U.Qoraboev imijga shunday ta’rif beradi: «Imij atrofdagilarning shaxs haqidagi billurlashgan tasavvuri asosida paydo bo‘ladi. Aniqrog‘i, insonning diqqatga sazovor tomonlari, qobiliyati faoliyati mahsuli ko‘pchilik tomonidan tan olinganidan so‘ng paydo bo‘ladi»<sup>1</sup>.

Nomzodning imiji saylovchilarning nomzodga ijobiy munosabatiga sabab bo‘ladigan axborotlarni tarqatishni nazarda tutadi. Bunda tarqatilayotgan axborotlar qator maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi: - jamoatchilik ongida nomzod haqida avvaldan shakllangan tasavvurlarni kuchaytirish, nomzod tomonidan saylovga qadar qilingan ijobiy ishlarni ko‘rsata bilish;

- saylov orugidagi muammolarni aniqlash va nomzodning asosiy maqsadi ushbu muammolarni hal qilish ekaniga saylovchilarni ishontirish;

- saylovchilar tomonidan nomzodga qo‘yilgan talablarga uning to‘la mosligini ko‘rsatib berish (yoshi, millati, jinsi, dini, oilaviy ahvoli, bilim darajasi, yashash joyi, ma'lumoti, sog‘lig‘i, xarakteri va h.k.);

<sup>1</sup> Qoraboyev U. Imij va imijeologiya // Jamiyat va boshqaruv. –T.: 1999. - № 1-2. - B. 47.

- nomzodning belgilangan saylovoldi strategiyasini amalga oshira olishiga insonlarni ishontirish (nomzod bu strategiyani shiorlar, reklamalar, nutqlar, uchrashuvlar orqali saylovchilarga yetkazib beraolishi lozim).

To‘rtinchidan, saylov kampaniyasi davrida «Jamoatchilik Bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish siyosiy partiyaning saylovoldi dasturini saylovchilar ommasiga jozibali tarzda yetkazishda ham Samara beradi. Saylov kampaniyalari bo‘yicha tadqiqot olib borgan F.Ilyasovning ta’kidlashicha: «Saylovoldi dasturini ishlab chiqishda muhim omilni yoddan chiqarmaslik zarur – saylovchilarning ko‘pchiligi bu dasturlarni o‘qimaydilar. Saylovoldi dasturi – saylov kampaniyasining ramziy belgisi, xolos. Biroq bu dasturlarni raqiblar diqqat bilan o‘qiydilar. Demak, saylovoldi dasturi mamlakatda yechimini kutayotgan (iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy) muammolarni hal qilish haqidagi fikrlardan iborat bo‘lmog‘i lozim. Bu dastur shunday tuzilishi kerakki, toki u hamma masalani qamrab olib, raqiblar tomonidan kamroq tanqidga uchrasin»<sup>1</sup>. Olimning yuqoridagi fikrlarini mutlaqlashtirmagan holda shuni ta’kidlash lozimki, ba’zi saylovchilar partiyalar yoki nomzodlarning saylovoldi dasturini o‘qimasliklari mumkin. Biroq shuni alohida ta’kidlash joizki, saylovoldi dasturi saylov kampaniyasining tarkibiy qismi bo‘lib, uning mazmuni bilan saylovchilarni tanishtirish nihoyatda muhimdir. Bunda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari vositasida dasturning mazmunini qiziqarli, ko‘pchilik uchun tushunarli tarzda saylovchilarga yetkazish mumkin. Beshinchidan, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan saylov kampaniyalari davrida foydalanish boshqa siyosiy partiyalar Bilan samarali raqobatni ta’minlaydi. Saylov kampaniyasi raqobatli jarayon bo‘lib, bu raqobat shafqatsiz kurashga, keskin ziddiyatlarga aylanib ketmasligi uchun saylov jarayonini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilingan. Ayrim mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, nomzodlarning bir- birini tanqid qilishlari ochiqdan-ochiq obro‘sizlantirish, tuhmatga aylanib ketadi. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari axborotning oshkoraligi, to‘g‘riligi, xolisligi va haqqoniyligi

---

<sup>1</sup> Ильясов Ф. Политический маркетинг: искусство и наука побеждать на выборах.-М.: ИМА-Пресс,2000. - С. 113.

tamoyiliga tayanar ekan, saylovoldi raqobatni ham axloqiy me'yorlar asosida tashkil etishda qo'l keladi. Saylovoldi kurashining huquqiy me'yorlar va axloq qoidalariga mos bo'lishi O'zbekiston Respublikasi uchun ham dolzarbdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bu masalaga alohida to'xtalib: «Mamlakatimizda qabul qilingan qonun va tartiblarga binoan, ko'ppartiyaviylik asosida tashkil qilingan saylovlarda bir deputatlik o'rniga kamida to'rt-besh nomzod bo'lishini kutishimiz tabiiydir. Shuni hisobga olsak, saylovlarga tayyorgarlik paytida ba'zi noma'qul ishlarga berilish, soxta va'dabozlik, odamlarning moyilligini uyg'otish maqsadida g'ayriqonuniy ishlarga qo'l urish kabi nosog'lom kurash avj olishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Saylovlar odamlarning mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, qabilachilik belgilari asosida ham ajralib ketishiga sabab bo'lmasligi kerak. Asossiz ravishda bir-birining obro'yini to'kish, haqoratlash, andishasizlik, har xil bema'ni «o'yinlar» uyushtirish singari noxush xollarga yo'l qo'yilmasligi zarur»<sup>1</sup>, deb ta'kidlagan edi. Siyosiy partiyalarning dasturiy maqsadlarini amalga oshirish jarayonida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish ularning siyosiy institut sifatidagi imkoniyatlarini ancha kengaytiradi. Siyosiy partiyalar o'z tarafdorlari, a'zolarini ko'paytirishni maqsad qilib qo'yar ekan, fuqarolarga nafaqat saylovchi sifatida, balki o'zlari tayangan ijtimoiy qatlam vakillari sifatida murojaat qilishga majbur bo'ladilar. Bu holat siyosiy partiyalarning aholi bilan faol muloqotini shartlab qo'yadi. Bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan barcha siyosiy partiyalar jamoatchilikka tayanib ish yuritishi ularning Nizomlarida aks ettirilgan. Masalan, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Nizomida partiya tashkilotlari maqsad-vazifalarini amalga oshirishda jamoatchilikka tayanib ish ko'rishi uqtirilib, partiyaning kotibiyati zimmasiga partiya siyosatini targ'ibot va tashviqot qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish, partiya a'zolari va keng jamoatchilikka partiya faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni yetkazish vazifasi yuklatiladi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup>Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000.-B.63.

<sup>2</sup> «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Nizomi./ <http://www.uzmtdp.uz>.

Siyosiy partiyalarning dasturiy vazifalarini amalga oshirishda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish qator vazifalarni samarali bajarish imkonini beradi. Birinchidan, partiya a'zolari, partiya tarafdorlari va saylovchilar bilan qaytma aloqani yo'lga qo'yish. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari yordamida qaytma aloqa o'rnatish siyosiy partiyalarning markaziy idoralari hamda quyi bo'g'inlari bilan muloqotni ta'minlash, saylovchilarning, tarafdorlarning muammolarini doimiy ravishda o'rganib borish va uning monitoringini yuritish imkonini beradi. Bu esa ayni vaqtda siyosiy partiya o'z dasturini takomillashtirib borish, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini o'zida ifoda etish imkonini beradi. Ikkinchidan, siyosiy partiya faoliyati haqida tarqatilayotgan axborotlarni tartibga solish. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda siyosiy partiyalar tomonidan o'tkazilgan tadbirlar, ularning faoliyatiga doir ma'lumotlarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishida bir xillik, takror, sifatsiz (VHS formatida suratga tushirilgan) videomateriallarning berilishi, press-relizlarning tushunarsizligi kabi holatlarni uchratish mumkin. Shu bois, siyosiy partiya tomonidan amalga oshirilgan ishlarni yoritishda axborotning mazmuni va shaklini saylovchi uchun tushunarli, qiziqarli va ta'sirchan ko'rinishga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, siyosiy partiya faoliyatining ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishi uchun «bahona» topish va uni amalga oshirish. Ko'p hollarda siyosiy partiyalar o'z faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish uchun tahririyatlarga avvaldan ma'lum qiladilar va oldindan belgilangan ssenariy asosida voqeya yoritiladi. Biroq axborot oqimlarining ko'pligi siyosiy partiyalardan o'z faoliyatining noan'anaviy usulda yoritilishi uchun «bahona» topishni, insonlarning partiya haqidagi stereotiplari uchun yangi bo'lgan ishlarni amalga oshirishlari lozim (masalan, partiya fraksiyasining qonun loyihasini ko'rib chiqishda bahs va tortishuvlar bo'lishi, partiya a'zolari o'rtasida shoular tashkil etish, muammoning yechimiga xizmat qiluvchi noan'anaviy qaror loyihalarini ishlab chiqish, taniqli insonning tantanali ravishda partiya a'zo bo'lishi va h.k.). Shunday qilib, siyosiy partiyalar faoliyatida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish ularni saylovchilarga yaqinlashtiradi, saflarini

yangi a'zolar bilan to'ldirishga xizmat qiladi, partiyalararo raqobatning jonlanishini ta'minlaydi. Biroq masalaning muhim jihati shundaki, siyosiy partiyalarning axborot sohasidagi faoliyatining jonlanishi fuqarolarning siyosiy jarayonlarga qiziqishini orttiradi, siyosiy madaniyatini yuksaltiradi, ularning siyosiy ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, siyosiy madaniyat siyosiy institutlarning shakllanishi va amal qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, siyosiy jarayonlarga mazmun kasb etadi, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning tabiatini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarida demokratik siyosiy madaniyatni qaror toptirishda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish bu jarayonning sur'atini optimallashtirish, maqsadli tarzda tashkil etish imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu texnologiyalar fuqarolarda siyosiy jarayon va munosabatlarda faol ishtirok etish, o'z manfaatlarini ifoda etish, uni himoya qilish va qondirish ko'nikmalarini qaror toptirishga, turli manfaatlarni kelishtirishga, fuqarolarning turli siyosiy tashkilotlar bilan samarali muloqotga kirishishiga, insonlarning siyosatga oid bilimlarini yuksaltirishga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalardan kelib chiqib 1-bobga xulosa qiladigan bo'lsak, "Jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalari jamiyatning muayyan axborot ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida maydonga chiqadi. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy munosabatlar jarayonida maqsadli va manfaatli ishtirokini ta'minlashga, shuningdek, muayyan ijtimoiy jarayonda ishtirok etmagan shaxslarda bu jarayon haqidagi tasavvurni shakllanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida "bugungi kunda ta'lim - tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televidenie, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur"<sup>1</sup> ligini ta'kidlagan edi.

---

<sup>1</sup>Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch-T.: Ma'naviyat, 2008. 2008.-B. 129.

## **II. BOB. SIYOSIY PARTIYALARNING JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARI YO‘NALISHLARI**

### **2.1. Siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llashda partiya bosma nashrlari va saytlarining o‘rni**

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida demokratik jamiyat qurish davrida jamiyat hayotida muhim sub'yekt hisoblangan siyosiy partiyalar o‘z faoliyatini jamoatchilik orasida targ‘ib qilish va o‘z elektorati safini kengaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘ygan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan barcha partiyaning bosma nashri va internet saytlari mavjud bo‘lib, ular vositasida siyosiy partiya va aholi o‘rtasida o‘zaro aloqalar shaklanishi nazarda tutilgan. Bugungi kunda siyosiy partiyalar bosma nashrlari o‘zining tez va sifatli tarzda partiya hayoti bilan bog‘liq ishonarli ma'lumotlar ba'zasini shakllantirish va aholiga yetkazish yo‘lidan bormoqda. Quyida ana shu partiya nashrlari faoliyati va uning jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyasi vositasi sifatidagi ahamiyati tahlil etilgan. Jumladan, Xalq demokratik partiyasi bosma nashri bo‘lmish “O‘zbekiston ovozi” ijtimoiy siyosiy gazetasi 1918 yil 21 iyundan chiqa boshlagan. Gazeta haftaning seshanba, payshanba, shanba kunlari chop etilib, unda partiya faoliyati va jamiyatda kechayotgan turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'rifiy mavzularda maqolalar chop etilgan. Gazetaning bosh sahifasida “Shu aziz vatan barchamizniki!” shiori va partiya yorlig‘i aks ettirilgan. Gazeta nomi lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tilida yozilgan. Gazeta sahifalarida partiya va jamiyat hayotini aks ettiruvchi fotosuratlar birinchi va oxirgi sahifada rangli 2-3 sahifada oq-qora tarzda berilgan. Gazeta hajmi 2 bosma taboqni tashkil etadi. Gazetaning birinchi sahifasida gazetani elektron holatda o‘qish imkoniyati mavjudligini bildirib gazetaning elektron sayti haqida ma'lumotlar darchasi e'lon tariqasida berilgan. Chop etilgan maqolalarni muayyan tartibda turkumlab o‘rganilganda 2013 yilning yanvar, fevral, mart, aprel, may oylarida gazetada xalqaro hayot va xalqaro jarayonlarga bag‘ishlangan “Xorij” rukni bilan 50 dan

ortiq maqola chop etilgan. O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi faoliyatini o‘zida aks ettirgan maqolalar soni esa 85 dan ortiqroqni, Oliy Majlis Qonunchilik Palatasidagi partiya fraksiyasi faoliyatini yorituvchi maqolalar 40 dan ortiqni tashkil etadi. Jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi maqolalar 300 dan ortiqdir. Shuningdek, gazetadan 90 ga yaqin ijtimoiy-iqtisodiy reklamalar, e'lonlar o‘rin olgan. Shuningdek, partiya gazetasida kunlik ob-havo yangiliklari haqida ham ma'lumot olish mumkin. “O‘zbekiston ovozi” gazetasida kuzatiladigan yana bir xususiyat shundan iboratki gazeta sahifalarida partiya faoliyatida ishtirok etayotgan yoki ishtirok etmayotgan fuqorolarni partiya faoliyatiga nisbatan fikr mulohazalarini aks ettiruvchi maqolalar kam kuzatiladi. Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolarining muayyan mavzuga konseptual yondoshilgan holdagi chiqishlari ham kam kuzatiladi. Partiya nashridagi bu kabi xususiyatlarni kuzatib, mazkur gazetaning xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotiga kirib borganligi, jamiyat a'zolarining ong tafakkurini o‘zgarishiga xizmat qiladi deyish mumkin, biroq bu faoliyatda partiya elektorati ko‘lamini kengaytirish, partiya tarafdorlarini partiya hayotiga kengroq jalb qilishga xizmat qilish uchun yetarli deb aytishga asos bo‘lmaydi. Adolat sotsial-demokratik partiyasi bosma nashri bo‘lmish “Adolat” ijtimoiy siyosiy gazetasi 1995 yil 22 fevraldan chiqqa boshlagan. Gazeta xaftaning juma kuni chop etilib, unda partiya faoliyati va jamiyatda kechayotgan turli ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va ma'rifiy mavzularda maqolalar chop etilgan. Gazetaning bosh sahifasida “Inson manfaatli-oliy qadriyat” shiori va partiya yorlig‘i aks ettirilgan. Gazeta nomi lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tilida yozilgan. Gazeta sahifalarida partiya va jamiyat hayotini aks ettiruvchi fotosuratlar bosh va oxirgi sahifada rangli, 2-7 sahifalarda oq-qora tarzda berilgan. Gazetaning birinchi sahifasida gazetani elektron holatda o‘qish imkoniyati mavjudligini bildirib gazetaning elektron sayti haqida ma'lumotlar darchasi e'lon tariqasida berilgan. Chop etilgan maqolalarni muayyan tartibda turkumlab o‘rganilganda 2013 yilning yanvar, fevral, mart, aprel, may oylarida gazetada 100 dan ortiq xalqaro hayot va xalqaro munosabatlarga bag‘ishlangan

maqola, 90 dan ortiq Adolat sotsial-demokratik partiyasi faoliyatini o'zida aks ettirgan maqola, 50 ga yaqin Oliy Majlis Qonunchilik Palatasidagi partiya fraksiyasi faoliyatini yorituvchi maqolalar chop etilgan. Jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi maqolalar 200 dan ortiqdir. Shuningdek, gazetadan 40 dan ortiq ijtimoiy-iqtisodiy reklamalar, e'lonlar o'rin olgan. Adolat sotsial-demokratik partiyasining bosma nashri bo'lmish "Adolat" ijtimoiy siyosiy gazetasida jamiyat e'zolarining ayrim shaxsiy ehtiyojlarini qondiruvchi ma'lumotlar, jumladan, xorijiy valyutalarning so'mga nisbatan qiymati, ob-havo ma'lumotlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlarining narhlari va boshqa ko'rinishdagi ma'lumotlar berilmagan. Gazeta sahifalarida huquqiy maslahat berish yo'lga qo'yilganligi gazeta o'quvchilarining soninin yanada ortishiga hizmat qiladi. Biroq gazeta sahifalarida partiya faoliyati yuzasidan jamoatchilikni fikri yoki partiya faoliyatida ishtirok etayotgan shaxslarning partiya faoliyatiga doir qarashlari kam bayon etilgan. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Leberal-demokratik partiyasi bosma nashri bo'lmish "XXI asr" ijtimoiy-siyosiy gazetasi 2004 yildan chiqa boshlagan. Gazeta xaftada bir marta chop etilib, unda partiya faoliyati va jamiyatda kechayotgan turli ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va ma'rifiy mavzularda maqolalar chop etilgan. Gazetaning bosh sahifasida "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va xushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir" shiori va partiya yorlig'i aks ettirilgan. Gazeta nomi lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilida yozilgan. Gazeta sahifalarida partiya va jamiyat hayotini aks ettiruvchi fotosuratlar bosh va oxirgi sahifada rangli, 2-7 sahifalarda oq-qora tarzda berilgan. Gazet hajmi 4 bosma taboq. Gazetaning birinchi sahifasida gazetani elektron holatda o'qish imkoniyati mavjudligini bildirib gazetaning elektron sayti haqida ma'lumotlar darchasi e'lon tariqasida berilgan. Chop etilgan maqolalarni muayyan tartibda turkumlab o'rganilganda 2013 yilning yanvar, fevral, mart, aprel, may oylarida gazetada 120 dan ortiq xalqaro hayot va jahonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga bag'ishlangan maqola, 200 dan ortiq partiya faoliyatini o'zida aks ettirgan

maqola, 75 ga yaqin Oliy Majlis Qonunchilik Palatasidagi partiya fraksiyasi faoliyatini yorituvchi maqolalar chop etilgan. Jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi maqolalar 220 dan ortiqdir. Shuningdek, gazetadan 120 dan ortiq ijtimoiy-iqtisodiy reklamalar, e'lonlar o'rin olgan. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston libberal demokratik partiyasi bosma nashri bo'lmish “XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasida xorijiy valyutalarning so'mga nisbatan qiymati, ob-havo ma'lumotlari berilgan. Gazeta sahifalarida partiya faoliyati yuzasidan jamoatchilikni fikri, partiya faoliyatida ishtirok etayotgan va partiya a'zosi bo'lmagan shaxslarning partiya faoliyatiga doir qarashlari chop etilgan.

Milliy tiklanish demokratik partiyasi bosma nashri bo'lmish “Milliy tiklanish” ijtimoiy-siyosiy gazetasi 2008 yildan chiqa boshlagan. Gazeta xaftada bir marta chop etilib, unda partiya faoliyati va jamiyatda kechayotgan turli ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va ma'rifiy mavzularda maqolalar chop etilgan. Gazetaning bosh sahifasida “Vatan tuyg'usi har narsadan ustun” shiori va partiya yorlig'i aks ettirilgan. Gazeta nomi lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilida yozilgan. Gazeta sahifalarida partiya va jamiyat hayotini aks ettiruvchi fotosuratlar bosh va oxirgi sahifada rangli, 2-7 sahifalarda oq-qora tarzda berilgan. Gazet hajmi 4 bosma taboq. Gazetaning birinchi sahifasida gazetani elektron holatda o'qish imkoniyati mavjudligini bildirib gazetaning elektron sayti haqida ma'lumotlar darchasi e'lon tariqasida berilgan. Chop etilgan maqolalarni muayyan tartibda turkumlab o'rganilganda 2013 yilning yanvar, fevral, mart, aprel, may oylarida gazetada 60 dan ortiq xalqaro hayot va jahonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga bag'ishlangan maqola, 200 ga yaqin partiya faoliyatini o'zida aks ettirgan maqola, 45 dan ortiq Oliy Majlis Qonunchilik Palatasidagi partiya fraksiyasi faoliyatini yorituvchi maqolalar chop etilgan. Jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi maqolalar 250 dan ortiqdir. Shuningdek, gazetadan 50 dan ortiq ijtimoiy-iqtisodiy reklamalar, e'lonlar o'rin olgan. “Milliy tiklanish” ijtimoiy-siyosiy gazetasida xronika ruknida partiya hayoti keng yoritilgan. Gazeta sahifalarida partiya faoliyati yuzasidan

jamoatchilikni fikri, partiya faoliyatida ishtirok etayotgan va partiya a'zosi bo'lmagan shaxslarning partiya faoliyatiga doir qarashlari chop etilgan. Shuningdek, gazetada partiyaning saylovoldi platformasidan parchaning muntazam chop etilgani gazetaning jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyasi vositasi sifatidagi rolini yanada oshiradi.

Partiya saytlarining barchasida partiyaning bosh g'oyasi, dasturi, nizomi, tarixi, faoliyati xaqida ma'lumotlar joylashtirilgan. Barcha partiya saytlarida partiya rahbar organlari, partiya fraksiyasi, partiyaga a'zo bo'lish qonun-qoidalariga doir ruknlar mavjudki, ular partiya xaqida umumiy ma'lumotlar beradi. Partiyaga a'zo bo'lish ruknida ham on-layn tarzda a'zo bo'lish xizmati yo'lga qo'yilgan. O'zLiDePning Oliy Majlisdagi fraksiyasi elektron manzili berilgan bo'lib, bu ham jamoatchilik bilan aloqa qilish sari bir qadam desak mubolg'a bo'lmaydi. Chunki, jamiyatdagi u yoki bu muammo yohud biror qonun haqida o'z fikr va qarashlarini bildirmoqchi bo'lgan oddiy jamoatchilik to'g'ridan-to'g'ri qonun chiqaruvchi organ – fraksiyaga elektron xat yozishi mumkin. “Milliy tiklanish” da esa hududiy partiya tashkilotlari raislari aloqa manzili mavjud bo'lib, biror masala bo'yicha murojaat qilishni istagan kishi o'z hududi tashkilotlari bilan bog'lanishi mumkin. Barcha partiya saytlarida “Qonunlar” rukni ham mavjud bo'lib, partiyalar faoliyatiga doir O'zbekiston Respublikasi Qonunlari o'quvchilar e'tiboriga taqdim etilgan. O'zLiDeP saytida esa tadbirkorlik faoliyatiga tegishli barcha qonunlar keltirilgan. Partiya saytining yana o'ziga xos tomoni shundaki, unda “obuna bo'lish” xizmati yo'lga qo'yilganki, saytga obuna bo'lgan kishi, partiya tadbirlari haqida yangiliklardan xabardor bo'lib turadi. Partiya saytlarining barchasida “Xotin-qizlar qanoti”, “Yoshlar qanoti”, shuningdek saylovlarga bag'ishlangan ruknlar mavjud. Lekin ruknning o'ziga xos tomoni shuki, unda fraksiya a'zolari, partiya ma'muriyati vakillari chiqishlarini mutolaa qilishingiz mumkin. “Adolat”SDPsi saytining e'toborga molik xususiyati – saytdan aynan o'sha daqiqada necha kishi foydalanayotganidan xabardor bo'lib turish mumkin. Yana “Partiya kundaligi” ham mavjud bo'lib, unda partiya tadbirlari arxivini oyma-oy, yilma-yil topsa bo'ladi. Partiya saytlarining har birida multimedia

xizmatlari, “fotogalereya” hamkor tashkilotlar va xukumat internet saytlari bilan bog‘lanish imkoniyati va o‘zaro bog‘lanish uchun partiya manzili mavjud. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan siyosiy partiya nashrlarini kuzatib shunday xulosa qilish mumkinki, barcha saytlarda partiya va aholi o‘rtasida axborotalmashinuvi imkoniyati tashkil etilgan. Biroq fuqorolarning bu saytlarga murojatlari kam kuzatiladi. Shu maqsadda partiya saytlarida olib borilayotgan faoliyatni fotosuratlar va maqolalar bilangina emas, vidio variantida berib borish, partiya saytlarida aholini faoliyatga chorlovchi shiorlar, shuningdek, saylovoldi platformani yoritib borish lozim. Partiya saytlarini muntazam yangi axborotlar bilan boyitish va murojatlarga munosib javob qaytarishni ta'minlash lozim.

## **2.2. Partiya fraksiyalarining qonun ijodkorligida qatnashuvi va uni jamoatchilikka yetkazish usullari**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach o‘tish davrining xususiyatlarini, o‘zbek xalqi tabiati, an‘analari va odatlarini hisobga olgan holda o‘ziga xos va mos qonun yaratish mexanizmini ishlab chiqish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Ayniqsa, ikki palatali parlamentga o‘tganligi bilan ushbu jarayon yanada faollashdi. Avvalo, qonun tayyorlash ishida jamoatchilikning keng qatnashuvi siyosiy partiyalar fraksiyalari orkali amalga oshiriladi va bu milliy qonunchiligimizning o‘ziga xos tomonlaridan biridir. Jamoatchilik qanday qatnashadi? O‘zbekiston Respublikasida qonun tayyorlash jarayoni bugungi kunda shartli ravishda quyidagi beshta asosiy tasnifdan iborat: 1) qonunchilik tashabbusi; 2) qonun loyihasini, ya'ni konsepsiyasini muhokama qilish; 3) qonunni birinchi, ikkinchi, uchunchi o‘qishda qabul qilish; 4) qonunni Senat muhokamasiga jo‘natish; 5) e‘lon qilish (xalqqa yetkazish).<sup>1</sup>

Beshinchi yo‘nalishning o‘zi jamoatchilik bilan aloqalarda parlament deputatlari o‘ziga xos uslubga egaligini ifoda etadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qonun chiqarish jarayoni huquqiy tomondan qattiq tartibga solingan.

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining reglamenti. 6-bob, 62-modda, 8-bandi.

Uning asosiy tamoyillari va tartib - qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning 82-moddasiga muvofiq esa qonunchilik tashabbusi huquqiga-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, o‘z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.<sup>1</sup> O‘z qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni parlamentga kiritish imkoniyatiga ega bo‘lgan qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlarining tarkibi kengligi qonun yaratish uchun umumiy demokratik asosni, bu jarayonga jamiyat vakillarini keng jalb etish bo‘yicha haqiqiy shart-sharoitni vujudga keltiradi. Mutaxassislar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning nuqtai nazarini e‘tiborga olish esa qonunlarning mukammal bo‘lishiga ko‘maklashadi. Bugungi kunda qonun yaratish ishiga siyosiy fraksiyalar va bloklar tomonidan ko‘rsatilayotgan ta'sirni e'tiborga olish zarur. Garchi fraksiyaning o‘zi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lmasa-da, qonun yaratish tamoyilining ishlab turishi va takomillashtirilishini tahlil etishda ularning faoliyatini hisobga olmaslik mumkin emas. Chunki ularning orqasida keng jamoatchilik – siyosiy partiyalar faoliyat ko‘rsatayapti. Fraksiya yig‘ilishlarida deputatlar muhokama qilinayotgan qonunlar loyihasi yuzasidan munozaralarda so‘zga chiqadilar va tegishli partiyaning fikru qarashlarini tarqatadilar. Beshta partiya fraksiyasining bunday faol ishlash jarayoni jamiyatda murosaga erishishga, ehtimol tutilgan salbiy ijtimoiy ko‘rinishlarning oldini olishga ko‘maklashadi.

Shuningdek, har bir qonun tayyorlanayotganda mutaxassislar va tegishli tashkilotlarning fikrlari e'tiborga olinadi. Ular bilan birgalikda ishlanadi. Har bir qo‘mitaning huzurida ekspertlar guruhi faoliyat olib boryapti. Jamoatchilik asosida ishlaydigan bu guruh tajribali olim va malakali mutaxassislardan iboratdir. Ular

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 82-modda, -T.: O‘zbekiston, 2012.

tomonidan ham qonunlarning mohiyatini tushuntirish bo'yicha talay ishlar amalga oshiriladi. Ishchi guruhlar tarkibida tajribali mutaxassislar va ekspertlarning ishtirok etganligi amaldagi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan asosli takliflar tayyorlash imkoniyatini beradi. Bugungi kunda ikki palatali parlament sharoitida qonunlarni qabul qilish va uni hayotga tatbiq etish yanada takomillashayapti. Jamoatchilik bilan aloqalar yanada kuchaymoqda. Chunki, parlamentimizning quyi, ya'ni Qonunchilik palatasi qonunlarni umumdavlat manfatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib qabul qilsa, yuqori palata har bir loyihani mahalliy manfaatlarni, ya'ni o'zi bilan ishlayotgan joydagi xalq manfaatlarini hisobga olgan holda o'z tafakkuridan o'tkazadi. Aslida qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning mazmun va mohiyati ham ana shundan kelib chiqadi. Ushbu faoliyatga partiyalarning fraksiyalari katta hissa qo'shib kelmoqdalar. Qonun loyihalari muhokama qilinayotganda deputatlar katta faollik ko'rsatdilar, ular eng mayda tafsilotlargacha sinchiklab o'rganib, ishlab chiquvchilar, mutaxassislar va ixtisoslashgan qo'mitalardan batafsil va dalil-isbotli javoblarni talab qildilar. Palata, qo'mitalarning, fraksiyalarning va qonunlarni tayyorlash bo'yicha ishchi guruhlar majlislariga vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rahbarlari, tegishli ixtisoslikdagi mutaxassislar taklif etildi. Deputatlar ularning qonun loyihalari muhokamasi chog'ida bildirgan fikr va mulohazalarini diqqat bilan eshitdilar. Bundan tashqari, qabul qilingan qonunning joylarga yetkazilishi ustidan nazorat qilish qo'mitalar kabi fraksiyalarning g'oyat muhim vazifasi bo'ldi. Bu masalada qo'mitalar kabi fraksiyalar ham hukumatga ko'maklashdi. Kiritilgan deyarli barcha qonun loyihalari bo'yicha mazkur sohadagi huquqiy maydon, ishlarning ahvoli to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish, kamchiliklarni va hal etish talab qilinadigan muammolarni aniqlash maqsadida mutaxassislar jalb etilgan holda davra suhbatlari tashkil etildi. Loyihalarni puxta ishlab chiqish, o'z qarashlarini kiritish va huquqiy normalarni talqin qilish, xalqaro huquq normalariga va boshqa mamlakatlarning tajribalariga taqqoslash deputatlar professional faoliyatining o'ziga xos xususiyati bo'ldi. Natijada ikkinchi va uchinchi o'qishlarda loyiha matnining ancha mukammal bo'lishiga erishildi,

qonunchilik tashabbusi sub'ekti tomonidan taqdim etilgan matnni, qonun normalarini qayta ishlash ko'pincha 70 – 80 foizga yetdi. Bu albatta, fraksiya a'zolari-deputatlarning jamoatchilik bilan ishlagani, ularning fikr va mulohazalarini olganligi tufaylidir.<sup>1</sup>

2005-2009 yillarda Qonunchilik Palatasining 107 ta majlisi o'tkazilib, ularda 256 ta qonun qabul qilindi va Senatga yuborildi. Bundan 229 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolandi va kuchga kirdi. Ana shu qonunlarning har birini siyosiy partiyalar o'z fraksiyalarining yig'ilishlarida muhokama qilib o'z pozitsiyasini bildirishgan. Ularni o'zlarining viloyat, tuman kengashlari, boshlang'ich tashkilotlari orqali keng targ'ib -tashviq qilishdi. Ta'bir joiz bo'lsa, har bir deputat PR agenti funksiyasini bajaradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijro etilish jarayoni to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqish besamar ketmaydi. Parlamentdagi fraksiyalar besh yil davomida Davlat byudjetini qabul qilish hamda uning ijro etilish jarayoni to'g'risidagi yillik va har choraklik hisobotlarni ko'rib chiqishga alohida e'tibor berdi. Chunki Qonunchilik palatasiga olib chiqishdan oldin ushbu hisobotlar siyosiy partiyalarning fraksiyalari nazaridan o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Hukumatning barcha a'zolari ishtirokida O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihasini – «Byudjetnoma»ni har yili taqdim etish «Byudjet siyosati to'g'risida»gi Qonunning 26-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. «Byudjetnoma»ga muntazam O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining ekspert xulosasi taqdim etiladi. Qonunchilik palatasi, uning qo'mitalari va siyosiy partiyalar fraksiyalari yig'ilishlarida deputatlar umuman asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini, navbatdagi davr uchun mo'ljallangan soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini batafsil muhokama qildilar, mamlakatimizning asosiy moliyaviy hujjati iqtisodiyotning barqaror va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlashini, uni strukturizatsiya qilishni, iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini texnologik jihatdan yangilashni, xo'jalik

---

<sup>1</sup> [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

yurituvchi sub'ektlarni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliq yukini izchil kamaytirib borish, investitsiya muhitini yaxshilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholini aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutishiga e'tibor qaratdilar. Muhim ijtimoiy muammolarni, birinchi navbatda, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi muammolarni hal etishga qaratiladigan davlat xarajatlarining ulushini oshirish zarurligi alohida ta'kidlandi. Davlat byudjetining ijrosiga doir yillik va har choraklik hisobotlarni Qonunchilik palatasining majlislarida eshitib borish shuni ko'rsatdiki, Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tasdiqlangan parametrlarga muvofiq maqsadli fondlar bilan birga, ya'ni mamlakatni strategik rivojlantirish, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni demokratlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ijro etib borilgan. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida byudjet parametrlarining oshirib bajarilishiga muvaffaq bo'lindi. Hisobotlarni eshitish yakunlari yuzasidan qabul qilingan qarorlarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida ish olib borilishi lozim bo'lgan kamchiliklar va imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi, tegishli tavsiyalar berildi, ularning ijrosi nazoratga olindi. Bu ishda siyosiy partiyalar fraksiyalarining ham hissasi bor. Chunki, fraksiya a'zolari saylovchilar bilan uchrashuvda ushbu faoliyatni targ'ib-tashviq qiladilar. Bu ham siyosiy partiyalarning jamoatchilik bilan aloqalarining o'ziga xos bir yo'lidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o'zining "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz" kitobida shunday deb ta'kidlagan edi: "Yana takror aytaman: agar jamiyat nazoratini tashkil eta olmasak, ya'ni joylarda davlat idoralari ustidan jamoatchilikning nazoratini o'rnatishga erisholmasak, bunday noxush holatlarni tag-tomiri bilan tugatishning imkoni bo'lmaydi. Bu kasallik, bu baloga qarshi kurashishning bundan boshqa yo'li yo'q"<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov keyinchalik bu fikrini yanada rivojlantirib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida shunday deydi: "Parlament – bu jamiyat hayotini oynadek yaqqol aks aks ettiradigan ko'zgu. Binobarin, jamiyatda

---

<sup>1</sup>Karimov.I.A.,Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.6-jild.-T.: O'zbekiston, 1998. -B.153.

qanday intilish, fikr va qarashlar mavjud bo'lsa, ular parlamentdagi muhokama va munozaralarda o'z ifodasini topishi kerak. Ana shunda parlament xalqning xohish irodasi, ezgu maqsadlarini mujassam eta oladi. Shundan keyin odamlar bunday qonunchilik hokimiyatiga ishonadi.<sup>1</sup>

...Bizning oldimizda turgan yana bir masala – qabul qilingan qonunlarimiz ijrosini ta'minlashdan iborat. Ma'lumki, qonun ijrosini Hukumat amalga oshiradi. Uning asosiy vazifasi qonunlarni so'zsiz ijro etishdir. Qonunlar so'zsiz bajarilgandagina biz huquqiy davlat qurishimiz mumkin. Siz, muhtaram deputatlar, qonunlarni qabul qilar ekansiz, ularning ijrosi bilan ham qiziqishingiz, kerak bo'lsa, tegishli mutassaddi rahbarlardan, birinchi navbatda, ijro hokimiyatidan shuni talab qilishingiz lozim".<sup>2</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov - "Bo'lg'usi deputatlarimiz o'z saylovchilarini va el-yurt oldidagi burchini munosib ravishda bajarish uchun avvalo, o'zlarini xalq noiblari sifatida his etgan holda, mamlakatimizdagi barcha islohot va yangilanish jarayonlarini o'z nazoratiga olib, davlat ijro hokimiyati vazifasida o'tirganlarning qonun chegarasidan chiqmasligini qattiq kuzatib tursa, o'ylaymanki, saylovchilarimizning, xalqimizning talabiga munosib javob beradigan ish bo'ladi,"-deb ta'kidlagan edi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'n ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida.<sup>3</sup>

Qonunchilik palatasining qo'mitalari 2005–2009 yillarda qonun hujjatlari, konvensiyalar, milliy dasturlarning ijro etilishini nazorat qilish tartibida 229 ta mmasalani ko'rib chiqdi Partiya fraksiyalari a'zolari ham ushbu nazorat-tahlil faoliyatida faol qatnashadilar. Qonunchilik palatasi fraksiyalarining tashabbusi bilan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari rahbarlarining ular tomonidan qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining bajarilishi to'g'risidagi axborotlarini eshitish amaliyotidan faol foydalanadigan bo'ldilar. Bularning bari matbuotda, siyosiy partiyalarning nashrlarida keng yoritildi. Bu faoliyat ham siyosiy partiyalarning o'z fraksiyalari orqali jamoatchilik ta'sirini o'tkazishga intilishining

<sup>1</sup>Karimov.I.A. O'zbek halqi hyech qachon,hyech kimga qaram bo'lmaydi", 13-jild.-T.: O'zbekiston, 2005. -B.171.

<sup>2</sup>Karimov.I.A. O'zbek halqi hyech qachon,hyech kimga qaram bo'lmaydi", 13-jild.-T.: O'zbekiston, 2005.-B.171-172.

<sup>3</sup>Karimov.I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi", 13-jild.-T.: O'zbekiston, 2005. -B. 111.

bir turi desak bo‘ladi.

Qonunchilik Palatasining majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotlari ham muntazam ravishda eshitib boriladi. O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi har yili kelgusi yilgi Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi va Davlat byudjetining parametrlariga doir xulosalarni taqdim etadi. Ish rejasiga muvofiq o‘tkazilgan tekshirishlar va nazorat tadbirlari jarayonida aniqlangan kamchiliklar va moliyaviy qoidabuzarliklar yuzasidan aybdor shaxslarga nisbatan choralar ko‘rish hamda Davlat byudjetiga keltirilgan zararlarning o‘rnini qoplash bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hisobotlarining muhokamasi yakunlari yuzasidan Qonunchilik palatasining tegishli qarorlari qabul qilinadi. Fraksiya a'zolari saylovchilar bilan uchrashuvlarda ushbu masalalarni sharhlab borishadi. Bu yo‘nalish ham partiya fraksiyalari orqali jamoatchilikka ko‘rsatiladigan ta'sirning bir usulidir. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Qonunchilik palatasi tomonidan siyosiy partiyalarning o‘z faoliyatini moliyalashtirish manbalari to‘g‘risidagi hisobotlari ham ko‘rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilinadi. Ushbu faoliyat ham jamoatchilikka yetkazib boriladi. Ushbu hisobotlarni tinglash, o‘rganish besamar ketmaydi. U jamoatchilikka yetkaziladi. Saylovchilar hayotda muammoli vaziyatga tushganida inson huquqlarini himoya qiladigan tashkilot mavjudligini bilib oladi. Byudjet tashkilotlari Hisob palatasi borligini, davlatning har bir tiyini joy-joyiga qo‘yish lozimligini yana bir marta ko‘nglidan o‘tkazadi. Albatta uni deputatlar saylovchilar bilan uchrashuvda joylarda sharxlashadi. Xullas, jamoatchilikka muloqotlar uchun imkoniyatlar yaratiladi. Parlamentdagi partiya fraksiyalarining jamoatchilik bilan aloqalari asosan qonunlarning targ‘iboti va tashviqoti bosqichida amalga oshadi. Tashviqotlar uch yo‘nalishdan iborat: tadbirlar (konferensiya, seminar, davra suhbatlari) hamda provard natijada ushbu tadbirlarning OAVda yoritilishi va deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari:

Tadbirlar - (konferensiya, seminar, davra suhbatlari). Parlamentdagi partiya fraksiyalari jamoatchilik bilan muntazam aloqada bo‘lish uchun turli konferensiya, seminar, davra suhbatlari, uchrashuvlar o‘tkazadi. Bu tadbirlarda respublikadagi

manfaatdor davlat idoralarining rahbarlari va xodimlari, turli nodavlat tashkilotlarning vakillari, olimlar, chet ellik mutaxassislar va ekspertlar, ommaviy axborot vositalari vakillari faol ishtirok etadilar. Shu yo‘l bilan deputatlar jamoatchilik fikrini o‘rganadilar, yetakchi mutaxassislar bilan tajriba almashadilar.

Qonunlar mazmun-mohiyatini xalqqa yetkazish uchun, qonunlarda fuqarolar xaq-huquqi, mamlakat milliy manfaatlari aks etayotganligini xalqqa tushuntirish uchun ommaviy axborot vositalarida deputatlar tomonidan chiqishlar uyushtiriladi. Xalq xohish-irodasi, intilishlari, fikr va qarashlari, shikoyat va dardlari bilan o‘rtoqlashish, muammolariga quloq tutib, hal etib berish maqsadida saylovchilar bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkaziladi, fuqarolar bilan uchrashuvlar tashkillashtiriladi, yozma va og‘zaki arizalariga javob beriladi. Siyosiy partiyalarda pablik rileyshnzning mavjudligini shu bilan isbotlash mumkinki, fuqarolardan kelgan shikoyatlarni, mavjud muammolarni partiyaning parlamentdagi vakillari-deputatlar atroflicha o‘rganib chiqib, tegishli mutassaddi idoralarga murojaat qilib, imkon boricha masalani ijobiy hal etishga harakat qildilar. Zero, pablik rileyshnzning vazifasi ham omma muammolarini hal etish, jamoatchilik va ma'lum tashkilotlar o‘rtasida iliq munosabatni yo‘lga qo‘yish, ijobiy muhit yaratish hisoblanadi. Konferensiya, seminar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarda qonunlar loyihalarining konsepsiyalari muhokama qilindi, mamlakatimiz hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sohalaridagi o‘zgarishlarning nazariy hamda amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Bu tadbirlar, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining, turli nohukumat tashkilotlarining vakillari, tegishli ixtisoslikdagi ekspertlar, OAV vakillari ishtirokida o‘tkaziladi.

Masalan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi «Adolat» SDP fraksiyasining jamoatchilik bilan aloqalari misolida ko‘rib chiqaylik. 2006 yil davomida fraksiya yuzlab seminar, konferensiya, davra suhbatlari kabi tadbirlar o‘tkazdi. Bu tadbirlarda respublikadagi manfaatdor davlat idoralarining rahbarlari va xodimlari, turli nodavlat tashkilotlarning vakillari, olimlar, chet ellik mutaxassislar va ekspertlar, ommaviy axborot vositalari vakillari faol ishtirok etdilar. Bu juda katta dadil qadamlar bo‘lib, ularni izchil davom ettirish, aholini ijtimoiy muhofaza

qilishini ta'minlash, iqtisodiy islohotlarni kuchaytirish, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish «Adolat» SDP fraksiyasining faoliyatida ustuvor yo'nalishlar, deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi faoliyatini tasdiqlangan ish rejasi asosida olib boradi. Fraksiya yig'ilishlarida kun tartibiga kiritilgan barcha qonun loyihalari bo'yicha qizg'in muhokamalar o'tkaziladi, zarur o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlanadi hamda «Adolat» SDP fraksiyasining pozitsiyasi aniqlab olinadi. Qonunchilik palatasining majlislarida muhokama qilinayotgan har bir qonun loyihasi bo'yicha muzokarlarda qatnashish ta'minlanadi. 2007 yil davomida fraksiya tarafidan 44 ta qonun loyihasi bo'yicha 120 dan ziyod takliflar tayyorlandi va tegishli qo'mitalarga taqdim etildi, jumladan: “Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasiga; “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturi to'g'risidagi qaroriga; “Pensiya mablag'larini fuqarolarning jamg'arma hisobida varaqlarida yakka tartibda jamg'arish tamoyillariga asoslangan pensiya tizimining yangi qo'shimcha mexanizmini joriy etish tartibi to'g'risida” gi qonun loyihasiga; “Pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmonni hozirgi kunda pensiyada bo'lgan fuqarolarga qo'llash amaliyoti” bo'yicha mutaxassislar bilan maslahatlashib tadbirlar ushtirib takliflar tayyorlanadi.

2007 yil 16 fevral kuni O'zbekiston Milliy universiteti Madaniyat saroyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasining O'zbekiston Milliy universiteti huquqshunoslik fakulteti bilan hamkorligida “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning yangi bosqichlari” mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi. Davra suhbatida Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi rahbari Dilorom Toshmuhamedova so'zga chiqib, mazkur qonun loyihalarining ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishga,

mamlakatimiz siyosiy hayotida ko‘ppartiyaviylik tizimini mustahkamlashga, siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi nufuzi va ta‘sirini oshirishga qaratilgan demokratik islohotlarning mantiqiy davomi ekanligini ta‘kidlab, bu siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirishda, fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini aytib o‘tdi. Tadbirda qatnashgan Qonunchilik palatasi deputatlari va universitetning professor–o‘qituvchilari yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng siyosiy jabhada amalga oshirilayotgan demokratlashtirish jarayonlarini tahlil qilib, bunda Respublika Prezidenti tomonidan qonunchilik tashabbusi bilan kiritilgan Konstitutsiyaviy qonunlarning nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib berdilar. Hududiy markazlarda o‘tkazilgan seminar-kengashlar o‘zining bir qator jihatlari bilan bir-biridan farqlandi. Misol uchun, Toshkent shahar Kengashi faollari anjumanida “Adolat” SDPning davlat va jamiyat qurilishidagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirish bo‘yicha amaliy vazifalar to‘g‘risidagi dastur asosida berilgan nafaqalar, pensiyalar va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni amalga oshirishdagi muammolarni hal etish masalasi tahlil qilinib, ularni amalga oshirish mexanizmi haqida kelishib olindi. Qarshi shahrida o‘tkazilgan anjumanda esa partiyaning viloyatdagi mahalliy deputatlari hududdagi mavjud ijtimoiy muammolar, aholining dolzarb o‘y-tashvishlari haqida so‘z yuritib, bu muammolarni hal etish uchun viloyatdagi partiya tashkilotlari nima ishlar qilishi kerakligi va Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan qanday yordam ko‘rsatilishi zarurligini ta‘kidlab o‘tdilar. Navoiy shahridagi seminar-kengashda partiya faollari ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish, onalik va bolalikning hamda oilaning ijtimoiy himoyasini ta‘minlash masalalariga asosiy e‘tiborni qaratdilar. 2007 yil mobaynida hambarcha fraksiya a‘zolari o‘z qo‘mitalari tomonidan tashkil etilgan 10 ta qonunning nazorat-tahlil tekshiruvlarida faol qatnashib keldilar: 2007 yil fevral oyida Andijon viloyatida “Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi qonunning, 2007 yilning oktyabr oyida Xorazm viloyatida “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunning ijro etilishi; 2007 yil fevral oyida “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi

Qonunining Jizzax viloyatidagi ijro etilishi; 2007 yil fevral oyida “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining Jizzax viloyatidagi ijro etilishi; 2007 yil aprel oyida “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining Navoiy viloyatidagi ijro etilishi o‘rganildi. Fraksiya faoliyati muntazam ravishda matbuot, televidenie, radio orqali yoritib borilmokda, turli intervyular uyushtiriladi. Jumladan, fraksiya a'zolari O‘zbekiston televideniesining birinchi kanalida, «Yoshlar», «Poytaxt», “NTT” kanallaridagi «Axborot», «Parlament soati», «Tahlilnoma», «Davr», «Poytaxt», «Hamshaharlar» va boshqa ko‘rsatuvlarida, “Mash‘al», «Yoshlar», «O‘zbekiston» radiokanallarida intervyular bilan ishtirok etishdi. Fraksiya a'zolari 2007 yilda gazetalarda 80 ortiq maqolalarni chop etishdi. Jumladan: D.Toshmuhamedova “Taraqqiyotning yangi bosqichi”<sup>1</sup>, “Ayol huquqi va manfaati”<sup>2</sup> maqolasi, X. Mamatovning “Siyosiy islohotlarning yangi bosqichi”<sup>3</sup> maqolasi, “Barqaror demokratik taraqqiyot garovi”<sup>4</sup> maqolasi chop etildi. Bundan tashqari, «Xalq so‘zi», «Narodnoe slovo», “Adolat” «Mir novostey», «Nalogovye i tamojennye vesti», “Uzbekistan today”, “Jamiyat”, “Ishonch” gazetalarida, «O‘zbekiston matbuoti», “Mohiyat”, “Demokratlashtirish va inson huquqlari” jurnallarida ham fraksiya a'zolari faoliyati to‘g‘risida intervyular va deputatlarning maqolalari berib borildi. Shu bilan bir qatorda Internetdagi partiya saytida ([www.adolat.uz](http://www.adolat.uz)) muntazam ravishda fraksiya hayotidan turli xil ma'lumotlar yoritilib kelindi. Ya'ni, saytning barcha sahifalarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro maydonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqyealarga fraksiyaning munosabati, qonunchilik sohasida ishlab chiqilgan tavsiyalar va takliflar, tashkil etilayotgan tadbirlar va boshqa turli axborotlar berib borildi. O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi tomonidan 2008 yilda 12 tadbirlar tashkil etildi. Jumladan: 2008 yil 20 fevral kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi tomonidan Toshkent Davlat

<sup>1</sup> Toshmuhamedova D. Taraqqiyotning yangi bosqichi//Adolat gazetasi. 7 sentyabr 2007 yil.

<sup>2</sup>Toshmuhamedova D. Ayol huquqi va manfaati //Adolat” gazetasi. 2 mart 2007 yil.

<sup>3</sup> Mamatov X. Siyosiy islohotlarning yangi bosqichi///Xalq so‘zi” gazetasi. 8 avgust 2007 yil.

<sup>4</sup>Mamatov X. Barqaror demokratik taraqqiyot garovi //Adolat gazetasi. 14 sentyabr 2007 yil.

iqtisodiyot universiteti talabalar turar joyi “Ma’naviyat va ma’rifat” xonasida “Milliy g‘oya va milliy matbuot” mavzusidagi talabalar va o‘qituvchilar ishtirokida davra suhbatlari tashkil etildi. 2008 yil 10 mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi, “Adolat” SDP Qashqadare viloyat kengashi xamda “Kamolot” YoIH Qashqadaryo viloyati Kengashi hamkorligida tashkil etilgan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan tadbirlardan kelib chiqadigan vazifalar” mavzusidagi davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi. 2008 yil 12 mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi Toshkent shahridagi. Talabalar shaharchasi Ma’naviyat va ma’rifat markazida “Yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari: holati va istiqbollari” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi. 2008 yil 19 aprel kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi hamda Surxandare viloyat kengashi bilan birgalikda “Yoshlar yili” Davlat dasturiga bag‘ishlangan tadbir Jarko‘rg‘on tumani Sanoat kasb-hunar kolledjida o‘tkazildi. 2008 yil 30 may kuni “Adolat” SDP Toshkent shaxar Kengashi qoshidagi “Yosh adolatchilar” Kengashi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarining mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan tadbirni o‘tkazdi.

Fraksiya faoliyati muntazam ravishda matbuot, televidenie, radio orqali yoritib borildi, turli intervyular uyushtiriladi. Chiqishlarda fraksiya a'zolari mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlar, modernizatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojining huquqiy asoslari, siyosiy jarayonlar, jamiyat hayotida siyosiy partiyalar rolining oshib borishi, jamoat nazorati, “Adolat” SDP faoliyati, OAV faoliyatini yanada rivojlantirish, I. Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” kitobi, mustaqillikning yilliklari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16 yilligi kabi mavzularda televidenie va radioda, turli gazeta va jurnallarda jami 158 dan ortiq chiqishlar, intervyular, maqolalar chop etildi. 2009 yilning olti oyi davomida fraksiya tarafidan 30 dan oshiq qonun loyihalari bo‘yicha 120 dan ortiq takliflar tayyorlandi

va tegishli qo‘mitalarga taqdim etildi. Shuningdek, fraksiya a'zolari ommaviy axborot vositalarida ham Konstitutsiyaviy qonun loyihalari bo‘yicha o‘z maqola va intervyulari bilan 20 dan oshiq chiqishlar qilishdi. Fraksiya faoliyati muntazam ravishda matbuot, televidenie, radio orqali yoritildi, turli intervyular uyushtirildi. Jumladan, fraksiya a'zolari O‘zbekiston televideniesining birinchi kanalida, «Yoshlar», «Poytaxt», «Axborot», «Parlament soati», «Tahlilnoma», «Davr», «Poytaxt», «Hamshaharlar» va boshqa ko‘rsatuvlarida, "Mash'al», «Yoshlar», «O‘zbekiston» radiokanallari, viloyatlar ommaviy axborot vositalarida turli masalalar yuzasidan olti oyda 200 ga yaqin intervyular bilan ishtirok etishdi. «Adolat» gazetasida doimo fraksiya faoliyatiga oid ko‘plab axborotlar berib boriladi, fraksiya a'zolari tarafidan maqolalar chop etildi. Bundan tashqari, «Xalq so‘zi», «Narodnoe slovo», «Mir novostey», «Nалоговые i таможенные вести», “Uzbekistan today”, “Jamiyat”, “Ishonch” gazetalarida, «O‘zbekiston matbuoti», «Ekonomicheskoe obozrenie», “Oliy Sud Axborotnomasi”, “Demokratlashtirish va inson huquqlari”, “Farmatsevticheskiy jurnal” jurnallarida ham fraksiya a'zolari faoliyati to‘g‘risida 40 dan ziyod maqola, intervyular berildi. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasining jamoatchilik bilan aloqalari doirasidagi faoliyatini ko‘rib chiqaylik. Fraksiya a'zolari keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining ijrosini o‘rganish yuzasidan o‘tkazilgan 65 ta nazorat-tahlil faoliyatini amalga oshirdilar va nazorat-tahlil faoliyatining xulosalaridan kelib chiqib, qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalangan holda qator qonunlar loyihalarini ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ldilar va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yalpi majlisiga olib chiqdilar. Bular, albatta, keng jamoatchilik, partiya boshlang‘ich tashkilotlari kengashlari bilan hamkorlikda kengaytirilgan yig‘ilishlarda ko‘rib chiqiladi. “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi tomonidan 2005 – 2009 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi yalpi yig‘ilishlari kun tartibidagi masalalar yuzasidan 3 mingga yaqin fikr-mulohazalar va takliflar bildirildi. Shuningdek, fraksiya a'zolari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi yalpi yig‘ilishlarida davlatimizning tashqi va ichki siyosatiga, jamiyatimizni

demokratlashtirish va modernizatsiyalash, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalardagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, inson huquqlarini ximoya qilish va sud-huquq tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirish, jamiyatimizni yanada rivojlantirishning huquqiy bazasini takomillashtirishga oid muhokama qilingan masalalar yuzasidan prinsipial pozitsiyalar bildirildi. Fraksiya tomonidan o'tgan yillar davomida 142 marta yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishlarda asosan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi yig'ilishining muhokamasiga kiritiladigan qonun loyihalari va masalalar muhokama qilindi. Shuningdek, yig'ilishlarda mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy hayotiga molik hamda partiya faoliyati bilan bog'liq muhim masalalar muhokama etildi.

O'tgan besh yillik davrda fraksiya a'zolari tomonidan joylarda konferensiya, seminar, davra suhbatlari va boshqa shakllarda 3000 dan ortiq tadbirlar o'tkazildi. Shuningdek jamoatchilikni yanada kengroq qamrab olish niyatida tanlovlar ham uyushtirildi. "Donolik va tashabbuskorlik–siyosiy yetakchilik mezoni" mavzusidagi ko'rik-tanlov Mustaqilligimizning 18 yillik bayramiga bag'ishlab o'tkazilgan, xotin-qizlarimizning ijtimoiy, siyosiy va huquqiy faolligini oshirishga qaratilgan muhim siyosiy tadbir bo'ldi. Ushbu tadbir yurtimiz xotin-qizlarining siyosiy va huquqiy bilimlarini yanada oshirish, joylardagi siyosiy yetuk, iqtidorli xotin-qizlarimizni tanlab, ularni partiyaning ilg'or yetakchilari qilib shakllantirish, aholi o'rtasida sog'lom demokratiya tafakkurini yanada rivojlantirish, eng muhimi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida alohida voqyea hisoblangan 2009 yilgi saylovlarga puxta tayyorganlik ko'rish maqsadida tashkil etildi.

Ko'rik–tanlov 2 oy davomida dastlab mamlakatimizning barcha tumanlarida, so'ngra QQR, Toshkent shahri va viloyatlarida bo'lib o'tdi. Ushbu ko'rik - tanlovning tuman, viloyat, Respublika bosqichlarida minglab ayollar faol qatnashdilar. Bu tadbir partiya nufuzini oshirish bilan birga xotin-qizlarning dunyoqarashini kengaytirishga munosib zamin yaratdi. Deputatlarning matbuotda chiqishlariga misol tariqasida Akram Jumayevning «Qonunchilik palatasining nazorat-tahlil faoliyati»<sup>1</sup> «Qonun loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish

<sup>1</sup> Jumayev A. Qonunchilik palatasining nazorat-tahlil faoliyati//Qalqon jurnali. 2006 yil aprel.

muammolari»<sup>1</sup>, R.Zaripovaning «Inson manfaatlari – oliy qadriyat»<sup>2</sup> «Qonunchilik tashabbusi huquqi»<sup>3</sup>, «Milliy qonunlarimiz – yurtimiz faxri»<sup>4</sup>, «Axborot xafvsizligi va qonunchilik»<sup>5</sup>, «Tinchlik va osoyishtalikning huquqiy kafolati»<sup>6</sup> «Siyosiy tizimni liberallashtirish»<sup>7</sup> va boshqalarni keltirish mumkin. Ra'no Zaripovaning «Siyosiy tizimni liberallashtirish» maqolasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida Qonunchilik palatasiga kiritilgan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi hamda “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasini tushuntirish va targ‘ibot etish masalalariga bag‘ishlangan. R.Zaripovaning «Axborot xafvsizligi va qonunchilik»<sup>8</sup> maqolasini esa “Axborotlashtirish va ma'lumotlarni uzatish sohasida sodir etilgan qonunga xilof xarakterlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni loyihasidan kelib chiqib yozilgan. Ushbu qonun loyihasi axborotlashtirish va ma'lumotlarni uzatish sohasida sodir etiladigan qonunga xilof harakatlarning oldini olish va bunday harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish

<sup>1</sup>Jumayev A.Qonun loyihalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish muammolari //O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi». 2006 yil 2-son.

<sup>2</sup>Zaripova R. «Inson manfaatlari – oliy qadriyat // Xalq so‘zi gazetasi. 2006 yil 26 mart.

<sup>3</sup>Zaripova R. Qonunchilik tashabbusi huquqi //Sog‘lom avlod» gazetasi. 2006 yil 32-son.

<sup>4</sup>Zaripova R. Milliy qonunlarimiz – yurtimiz faxri// Milliy tiklanish» gazetasi. 2006 yil 34-son.

<sup>5</sup>Zaripova R. Axborot xafvsizligi va qonunchilik //O‘zbekiston matbuoti jurnali. 2006 yil 4-son.

<sup>6</sup>Zaripova R. Tinchlik va osoyishtalikning huquqiy kafolati//Xalq so‘zi gazetasi. 2006 yil 15 noyabr.

<sup>7</sup>Zaripova R. Siyosiy tizimni liberallashtirish //Jamiyat gazetasi. 2007 yil 9 fevral.

<sup>8</sup>Zaripova R. Axborot xafvsizligi va qonunchilik //O‘zbekiston matbuoti jurnali. 2006 yil 4-son.

maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini “Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” deb nomlangan yangi bob bilan to‘ldirish hamda Jinoyat-protsessual va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutadi. R.Zaripova ushbu maqolasida axborot xurujining jamiyatga salbiy ta‘sirini, qonun loyihasining mazmun-mohiyatini ochib bergan. A.Jumayevning «Qonunchilik palatasining nazorat-tahlil faoliyati»<sup>1</sup> maqolasini olib ko‘raylik. Qonunchilik palatasining Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi tashabbusi bilan “Qonunchilik palatasi va uning deputatlari tomonidan parlament so‘rovi huquqini amalga oshirish masalalari” mavzusiga bag‘ishlangan seminar o‘tkazilganligini yuqorida tilga olingan edi. Bu haqida gazetalar xabar berdi. A.Jumayev esa uni o‘z maqolasida masalani butun murakkabligi bilan tasvirlab, muammolarini deputatlar qanday hal etishga intilayotganligini ko‘rsatib berishga intilgan. Darhaqiqat, parlament so‘rovidan o‘tgan ikki yilda parlament kam foydalangan. Parlament so‘rovi dunyodagi parlamentlar amaliyotida keng tarqalgan nazorat shakli bo‘lib, uning samaradorligini oshirish hamda ishlash mexanizmini kuchaytirish o‘ta dolzarb masalalardan biridir. Zero, parlament nazorati instituti va uning parlament so‘rovi shakli bu shunchaki ozchilikni xohish-istagi emas, balki ko‘pchilikning talabi ekanligi va xalqning davlat boshqaruvidagi ishtirokining demokratik ko‘rinishlaridan biri hamda deputatlarning saylovchilar oldidagi ma‘suliyatidir. Mamlakatimizda parlament nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlari hamda har ikki palataning tegishli ish reglamentlarida Qonunchilik palatasi va uning deputatlari davlat hokimiyatiga va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so‘rovi yo‘llashga haqliligi, parlament so‘roviga javobni tegishli mansabdor shaxslar Qonunchilik Palatasi Majlislarida o‘n kun ichida berishligi qonunlarda rasmiy tarzda belgilangan. Parlament nazoratining asl mohiyati uning xalq nomidan va xalqdan

---

<sup>1</sup>Jumayev A.Qonunchilik palatasining nazorat-tahlil faoliyati//Qalqon jurnali. 2006 yil aprel.

olingan vakolatlar asosida amalga oshirilishidadir. Xo'sh, unday bo'lsa nima sababdan faoliyat yurita boshlaganiga ikki yildan oshishiga qaramay, Oliy Majlis va uning palatalari "parlament so'rovi" institutidan amalda deyarli foydalanmayapti? Qonun loyihalarini tayyorlashda parlament so'rovi haqida alohida norma mavjud bo'lsa ham, bu institutning tom ma'nodagi amaliyotga tadbqiq etilishi deyarli ro'yobga chiqmayapti. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, mazkur institut faoliyatining huquqiy asoslari yaratilgan bo'lsa-da, amalda qo'llash bilan bog'liq masalalar yetarli darajada ochib berilmagan. Biron bir qonunda "deputat xati", "deputat yozishmalari", "deputat murojaati" tushunchalarining mohiyati tushuntirilmagan. Hozirgi parlament so'rovi bilan bir palatali parlament davridagi deputat so'rovining farqi katta. Ilgari faqat sessiyalarda deputat so'rovi berilardi. Hozir bu institutning imkoniyati yanada kengaytirildi va deputatlar istagan vaqtida parlament so'rovi berish huquqiga ega. Demak, deputatning har qanday mansabdor shaxslarga biron bir masala yuzasidan murojaat qilishi bu – deputat so'rovi bo'lishi kerak. Biroq, ushbu parlament so'rovi bilan deputat so'rovining farqi keng ochib berilmagan. Maqolada amaldagi qonun hujjatlarida parlament so'roviga o'n kunlik muddatda javob yo'llashning imkoni bo'lmagan taqdirda javob yo'llash masalasi qanday hal qilinishi lozimligi va parlament so'roviga javob qanday hollarda rad etilishi mumkinligiga haqida so'z yuritiladi. Maqolada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining reglamentlaridagi ushbu yo'nalishga daxldor moddalarni yanada takomillashtirish va xalqaro tajribalarni o'rganish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning yanada samarali yo'llarini izlab topish, muammolar yechimi borasida deputatlarning o'zi fikr-mulohazalarini bildirishi kerakligiga urg'u berilgan. Parlament nazorati institutini takomillashtirish zamon talablari darajasida olib borilmayotganligining o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bo'lishi mumkin. Taraqqiy topgan jahon hamjamiyatiga munosib a'zo bo'lish maqsadida parlamentimizni zamon talablari asosida shakllantirishga bel bog'landimi, demak uning faoliyatini samarali ishlashi uchun nafaqat qonun ijodkorligini huquqiy asoslari takomillashtirilishi, balki dunyo parlamentarizmi tajribalari asosida muvaffaqiyatli qo'llab kelinayotgan

parlament nazorati institutini rivojlantirish ham talab etiladi. Ko‘rib turganingizdek, qo‘mita tashkil etgan qonferensiyadagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib A. Jumaev mazkur masalani o‘z maqolasida har tomonlama yoritishga intilgan. Endi Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi XDPning jamoatchilik bilan aloqalarini misollar yordamida ko‘rib chiqaylik. Fraksiya “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari, maqsadli vazifalari hisobga olingan holda 2005 yilga va kelgusi yillarga mo‘ljallangan qonunchilik faoliyati dasturi”ning ishlab chiqilishi va qabul qilinishida faol ishtirok etdi. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish, iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish, amaldagi qonunchilik hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha fraksiya tomonidan 38 ta taklif kiritildi. Keyingi besh yil davomida fraksiyaning 151 ta majlisida jami 560 ta masala ko‘rildi. Qonunchilik palatasi majlislari muhokamasiga kiritilgan barcha qonunlar loyihalari fraksiya majlislarida muhokama qilinib, ular bo‘yicha fraksiyaning nuqtai nazari ishlab chiqildi. Fraksiya majlislarida XDP elektorati manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega qator qonunlar loyihalari bo‘yicha maxsus ishchi guruhlar tuzilib, fraksiyaning asoslangan takliflari tayyorlandi, palata majlislarida ular bo‘yicha chiqishlar qilindi. Xususan, XDP elektorati manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan - “Mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida”, “Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to‘g‘risida”, “Ipoteka to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, “Mikromoliyalash to‘g‘risida”, “Homiylilik to‘risida”, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”, “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari loyihalari bo‘yicha maxsus ishchi guruhlar tuzilib, fraksiyaning asoslangan takliflari ishlab chiqildi, palata majlislarida ular bo‘yicha chiqishlar qilindi. Fraksiya majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator

farmon va qarorlaridan kelib chiqadigan vazifalar ko‘rib chiqildi. Ularda bayon etilgan qoida va xulosalardan kelib chiqadigan vazifalarga bag‘ishlanib, joylarda yig‘ilishlar o‘tkazildi, ushbu farmon va qarorlarning mazmun-mohiyatini aholiga tushuntirish bo‘yicha uchrashuvlar tashkil qilindi. Shuningdek, fraksiya majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hamda siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish manbalari to‘g‘risidagi har yilgi hisobotlari haqidagi masalalar muhokama etildi. Fraksiya tomonidan o‘tgan besh yillik davrda joylarda 260dan ziyod amaliy uchrashuvlar, tadbir va seminarlar o‘tkazildi. Fraksiya a‘zolari umumiy hisobda 3103 marta turli tadbirlarda ishtirok etishdi. “O‘zbekiston XDP parlament demokratiyasi tizimida” (O‘zXDP MK bilan birgalikda), “Nogironlarni ijtimoiy himoyalashga oid O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish masalalari” (O‘zXDP MK va O‘zbekiston Nogironlar jamiyati bilan birgalikda), “Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari” (Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi bilan hamkorlikda), “Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonunni amaliyotga tatbiq etish muammolari”, “Ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari”, “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash masalalari” mavzularidagi tadbirlar, fraksiya va xalq deputatlari qator tuman va shaharlar Kengashlaridagi XDP guruhlarini bilan birgalikda seminarlar hamda boshqa tadbirlar o‘tkazildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan kiritilgan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning loyihasini muhokama qilish hamda qabul qilingan qonunni aholi o‘rtasida targ‘ib qilish bo‘yicha O‘zXDP fraksiyasi a‘zolari tashabbusi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda 60 dan ziyod uchrashuvlar, davra suhbatlari, konferensiyalar o‘tkazildi, televidenie, radio, gazetalarda deputatlarimizning 30 dan ziyod intervyu,

munosabat va maqolalari e'lon qilindi. Shuningdek, fraksiya a'zolari tomonidan joylarda o'tkazilgan jami 38 ta tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuksak madaniyat – yengilmas kuch" asarida belgilangan vazifalar to'g'risida fikr-mulohazalar bildirildi. Fraksiya o'zining qonuniy huquqlari va parlamentchilik faoliyati mexanizmlaridan foydalangan holda qator tashabbus va takliflar bilan chiqdi. Qonunchilik palatasi Reglamentiga muvofiq 2005-2009 yillar davomida fraksiya a'zolarining joylarda saylovchilar bilan o'tkazgan jami 2479 ta uchrashuvlarida deputatlar mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati, Qonunchilik palatasi faoliyati, qabul qilinayotgan qonunlar to'g'risida chiqishlar qildilar. Deputatlar fuqarolarni Qonunchilik palatasida ham, saylov okruglarida ham qabul qildilar. 2008 yilda fraksiya a'zolari 4123 marta fuqarolarni qabul qildilar. Fraksiya a'zolari Qonunchilik palatasi qo'mitalari tomonidan o'tkazilgan jami 174 ta nazorat-tahlil ishlarida qatnashdilar. Ular deputatlar guruhlarida mamlakatimizning barcha mintaqalari, shuningdek bir qator vazirlik va idoralarda amaldagi qonunlar, konvensiyalar, milliy dasturlarning ijrosini o'rgandilar, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarning ishlab chiqilishida faollik ko'rsatdilar.

Partiyalarning jamoatchilik bilan aloqalarining yana bir usuli aholining murojaatlari bilan ishlashida ko'rinadi. 2005-2009 yillarda fraksiyaga 388 ta xat va ariza keldi. Jumladan, 322 ta xat turli davlat idoralari va Qonunchilik palatasi qo'mitalaridan yuborilgan bo'lib, ularga belgilangan tartibda javob berildi. Fuqarolardan fraksiyaga 65 ta, bevosita fraksiya a'zolariga saylovchilardan 2921 ta xat, shikoyat va arizalar tushdi. Asosan turli darajalardagi sudlarning qarorlari, ba'zi mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, xuquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining faoliyati, kommunal xizmatlar, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, fuqarolarni chet ellarga ishga jo'natish bo'yicha muammolar to'g'risidagi ushbu barcha shikoyat va arizalar amaldagi qonunlar doirasida ko'rib chiqish uchun tegishli davlat organlariga yuborildi. Ularning 1188 tasi ijobiy hal qilingan. O'tgan davr davomida fraksiya a'zolarining gazeta va jurnallarda 649 marta maqola, intervyulari, televidenie va radio orqali 1282 marta chiqishlari e'lon

qilindi. O‘zXDP fraksiyasining faoliyati, amalga oshirilgan ishlari va fraksiya tomonidan o‘tkazilgan majlislar, “davra suhbatlari”, uchrashuvlar va boshqa tadbirlari, ushbu yig‘ilish va tadbirlarda ko‘tarilgan ijtimoiy-siyosiy muammolar, jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega qonunlar loyihalari yuzasidan deputatlar, jamoatchilik vakillari, olim va mutaxassislarning ma’ruza va takliflari, fikr-mulohazalari, ommaviy axborot vositalarida, xususan, O‘zXDPning “O‘zbekiston ovozi” va “Golos Uzbekistana” gazetalarida, radio va televideniya muntazam yoritib borildi. Jumladan, N.Ismoilovning «Priobresti jile pomojet»<sup>1</sup>, Faxriddin Rajabov «Aholi bandligi»<sup>2</sup>, «Huquqiy islohatning muhim bosqichi»<sup>3</sup>, «Jamiyat taraqqiyoti garovi»<sup>4</sup>, Abdumannop Raximov «Mukammal qonunlar taraqqiyotga xizmat qiladi»<sup>5</sup> kabi maqolalarini ko‘rsatish mumkin. Deputat Nurdinjon Ismoilovning «Priobresti jile pomojet» nomli maqolasi uy-joy sotib olishga yordamlashadi. Ushbu maqolada yangi qabul qilingan “Ipoteka to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun-mohiyati, uni mamlakatimizda xalqimizning ijtimoiy himoyasiga munosib hissa qo‘shishi, aholining turar-joy bilan ta‘minlashning huquqiy asoslari yaratilishi haqida chuqur tahlillar berilgan. “Amaldagi Fuqarolik kodeksi, “Garov to‘g‘risida”gi Qonun ipoteka munosabatlarini to‘liq va har tomonlama tartibga sola olmaganligi uchun ipoteka to‘g‘risidagi maxsus qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda ko‘chmas mulklarning garovini qo‘llash uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi”<sup>6</sup>, - deyiladi unda. Shuningdek, maqolada Qonunda ipoteka qoidalarining boshqa bir qator huquqlarga ham qo‘llash imkoniyatlari yaratilganligi sharhlab berilgan. Abdumannob Rahimovning «Mukammal qonunlar taraqqiyotga xizmat qiladi» nomli maqolasida «Qonunlar loyihalarini tayyorlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni haqida hikoya qiladi. Darhaqiqat, ushbu

<sup>1</sup> Исмоилов Н. Приобрести жилье поможет//Народное слово газетаси. 2006 йил 18 январь.

<sup>2</sup>Rajabov F. Aholi bandligi//O‘zbekiston ovozi» gazetasi. 2006 yil 13 iyun..

<sup>3</sup>Rajabov F. Huquqiy islohatning muhim bosqichi //O‘zbekiston ovozi gazetasi. 2006 yil 4 iyul.

<sup>4</sup>Rajabov F. Jamiyat taraqqiyoti garovi //O‘zbekiston ovozi gazetasi. 2006 yil 12 dekabr.

<sup>5</sup>Raximov A. Mukammal qonunlar taraqqiyotga xizmat qiladi //O‘zbekiston ovozi» gazetasi. 2006 yil 4 iyul.

<sup>6</sup> Исмоилов Н. Приобрести жилье поможет//Народное слово газетаси. 2006 йил 18 январь

qonunni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yurak urushini ifoda etuvchi qonun desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2006 yil 11 oktyabr kuni imzolangan va matbuotda e‘lon qilingan ushbu Qonun qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lgan sub'ektlarning qonunlar loyihalarini tayyorlash bo‘yicha vakolatlari va ular tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishning tartib-tamoyillari, qonunlar loyihalarini tayyorlashga doir faoliyatning asosiy prinsiplari, qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan qonunlar loyihalarini tayyorlash tartibi, qonunlar loyihalarini tayyorlash faoliyatini rejalashtirish va boshqa qator normalarni o‘z ichiga olgan. “Qonun qonunchilik jarayonini yanada takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi”<sup>1</sup>. Xar bir qonun targ‘iboti va tashviqoti ishlariga deputatlar munosib hissa qo‘shishgan va buni ularning OAVlarida chiqishlaridan ham kuzatsak bo‘ladi. Faxriddin Komilovning «Kichik biznes va tadbirkorlik: qonunchilikdagi o‘zgarishlar»<sup>2</sup>, S Jabborovning «Qonunchilik tashabbusi – yuksak ma'suliyat»<sup>3</sup>, «Qonun ijodkorligi – muhim jarayon»<sup>4</sup>, Matluba Maxametova «Oila - jamiyat poydevori»<sup>5</sup> kabi maqolalar e‘lon qilishgan. Faxriddin Komilovning «Kichik biznes va tadbirkorlik: qonunchilikdagi o‘zgarishlar» sarlavhali maqolasida “Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi hamda ularning moliyaviy javobgarligi erkinlashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini sharhlaydi. Unda O‘zbekiston Respublikasining 36 ta qonuniga va 2 ta kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish nazarda tutilgan. Qonun loyihasining O‘zbekiston Respublikasining “Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi”ga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Bojxona kodeksi”ga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qismi Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi tomonidan ishlanib maromiga yetkazildi. Undan tashqari maqolada qo‘mitaning

<sup>1</sup> Raximov A. Mukammal qonunlar taraqqiyotga xizmat qiladi //O‘zbekiston ovozi» gazetasi. 2006 yil 4 iyul

<sup>2</sup> Komilov F. Kichik biznes va tadbirkorlik: qonunchilikdagi o‘zgarishlar //XXI asr gazetasi. 2006 yil 2 fevral

<sup>3</sup>Jabborov S. Qonunchilik tashabbusi – yuksak ma'suliyat //Xalq so‘zi gazetasi. 2006 yil 20 aprel.

<sup>4</sup> Jabborov S. Qonun ijodkorligi – muhim jarayon// Ishonch gazetasi. 2006 yil 14 iyul.

<sup>5</sup>Maxametova M.Oila - jamiyat poydevori// Sog‘lom avlod gazetasi. 2007 yil 19 aprel.

asosli va qat'iy yondashuvi tufayli 4 qonunga kiritilishi mo'ljallanayotgan asossiz o'zgartish va qo'shimchalar qonun loyihasidan chiqarib tashlanganligi hikoya qilinadi. Matluba Maxametovanning «Oila - jamiyat poydevori» nomli maqolasida "O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 49-moddasiga o'zgartish kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni sharhlangan. Mazkur Qonunning qabul qilinishi bilan, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki OITS bilan kasallanganligini boshqasidan yashirgan taqdirda, insofli tarafga nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga murojaat etishlik huquqi tiklanadi. Nikoh haqiqiy emas deb topilishi bilan insofli taraf barcha mulkiy masalalarini fuqarolik qonunchiligi hamda oila qonunchiligi bilan himoya qila olish huquqiga ega bo'ladi. Qonunchilik palatasi deputatlari-fraksiya a'zolarining quyi palata faoliyati haqida OAVda e'lon qilgan materiallarini tahlil etadigan bo'lsak, shuni aytish lozimki, deputatlar 2005 yil davomida OAVda 1420 ta, 2006 yilda 2100 ta chiqishlar qilganlar. Ommaviy axborot vositalarida sud-huquq mavzuining yoritilishi darajasini o'rganib monitoring natijasi ijobiy ekanligi aniqlandi. Ular mamlakatimizdagi yuzdan ortiq OAVlari bilan hamkorlik qilishgan. Eng asosiysi deputatlarning tahliliy maqolalari salmoqli o'rinni egallaydi.. Lekin shuni aytish lozimki, Qonunchilik va sud-huquq mavzusi respublika gazetalariga nisbatan viloyat va tuman gazetalarida kam yoritilgan.

### **III. BOB. SIYOSIY PARTIYALARI FAOLIYATIDA AXBOROT- MAFKURA MASALASI VA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR TEXNOLOGIYASINING ISTIQBOLLARI**

#### **3.1. Siyosiy partiyalar faoliyatida islohotlar davrida axborot va mafkura masalalari**

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida hayotining barcha jabhalari qatori siyosiy partiyalar sohasida ham Islom Abdug'anievich Karimov rahnamoligida olib borilgan islohot asosida mustaqil yurt, mustaqil jamiyat ruhiga mos bo'lgan siyosiy partiyalar maktabi yaratildi, shakllantirildi, rivojlantirildi. Demokratik jamiyat qurish uchun qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu jamiyatda birdan ortiq partiyaning faoliyat yuritishi va uning vositasida xalqning davlat siyosatida ishtirokini ta'minlashdan iborat. Chunki siyosiy partiyalar aholining siyosiy faol bo'lishiga xizmat qiladi. Ta'bir joiz bo'lsa, hokimiyat bilan xalq o'rtasida vositachilik qiladi. Xalqni hokimiyatga yaqinlashtiradi. Va uni boshqarishda faol ishtirok qilishni ta'minlaydi. Shuning o'zi ham siyosiy partiyalar jamoatchilik bilan ishlaydigan tashkilot desa ham bo'ladi. Partiyalarning har bir sa'y – harakati xalq ichiga kirish va o'z atrofida yanada ko'proq aholini jipslashtirishdir. Zero, ularning parlamentdagi o'rinlari ham ana shu jamoatchilik bilan qay darajada ishlay olishiga bog'liq. O'tgan davrda partiyalar mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilm – fan, ma'naviyat va ma'rifatni taraqqiy toptirish, bir qator ijtimoiy muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish borasidagi mamlakatimizda amalga oshirilgan ulug'vor islohotlarning faol ishtirokchisiga aylandi. U ilm – fan namoyandalarining, ta'lim – tarbiya soxasi xodimlarining, ijodkor ziyolilarning, tadbirkorlarning bir so'z bilan aytganda vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shish orzusida bo'lgan juda ko'plab hamyurtlarimizni o'z atrofida jipslashtirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan Qo'shma yig'ilishidagi

o'z ma'ruzalarida o'tgan 16 yilni ikki davrga bo'ldilar. Birinchi bosqich milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, ( 1991 yildan 2000 yilgacha) u o'tish davri deb nomlandi. U mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan va ulug'vor islohotlar amalga oshirilgan yillar bo'lib, tarixda qoldi. 2001 yildan 2007 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich- faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri esa iqtisodimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, aholining turmush farovonligini yanada oshirish, demokratik jarayonlarni davom ettirish, huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurishda g'oyat muhim rol o'ynagan davr bo'ldi. Darhaqiqat, I.Karimov rahbarligida bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan har bir islohotlarning bir qirradi siyosiy partiyalar hayotida ham aks etadi. Bu yuksak maqsadlarga erishish omillaridan biri, albatta, siyosiy partiyalarga ularni keng ko'lamda ijtimoiy-siyosiy faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratib berishdir.

Istiqlol yillarida siyosiy partiyalarning o'z oldilariga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi uchun mustahkam huquqiy baza yaratildi. Asosiy qonunimiz - Konstitutsiyaga tayangan holda, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi qonunlar hamda bir qator boshqa qonun hujjatlari qabul qilindi. O'tgan davr mobaynida siyosiy partiyalarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va roli, qarorlar qabul qilishda partiyalarning nuqtai-nazariga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida partiyalar fraksiyalarining qonun ijodkorligi borasidagi faoliyati tubdan o'zgardi. Shuningdek, siyosiy tajriba orttirish, siyosiy yetuklik va moliyaviy mustaqillikka erishish va jamiyatda o'z o'rnini topish, o'zining barqaror elektoratini shakllantirish yuzasidan siyosiy partiyalar ham ma'lum bir yo'lni bosib o'tdi. Mustaqillik yillaridagi siyosiy partiyalarning faoliyatini ham ikki davrga bo'lish maqsadga muvofiq. 2000 yilgacha

mamlakatimizda ko‘ppartiyaviylik shakllandi. Uning huquqiy asoslari «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi Qonunda belgilab qo‘yildi. 1999 yilgi parlament saylovida birinchi marta bir necha siyosiy partiyalarning nomzodlari bellashdi. To‘la ishonch bilan aytish mumkin, mamlakatimizda siyosiy partiyalarning shakllanishi, ularni samarali faoliyat yuritishi uchun to‘liq imkoniyatlar ochib berildi. Shuningdek, ko‘ppartiyaviylik tamoyillariga asoslangan, zamonaviy talab va andozalarga javob beradigan saylov tizimi yaratildi. Ikkinchi bosqichda esa “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi va partiyalar davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirila boshlandi. Bu esa siyosiy partiyalarda ishlaydigan kadrlarning qo‘nimligini ta‘minlashda va jamoatchilik bilan aloqalarni yanada kuchaytirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Zero, siyosiy partiyalar - bu kadrlar tayyorlash akademiyasi, dorilfununidir. Uning tub mohiyati jamoatchilik bilan ishlab ularning orasidan munosib siyosatchilarni topish va ular orqali yanada xalqning ishonchini qozonishdir. Pirovard natijada parlamentda munosib o‘rin egallash va davlat boshqaruvida qatnashishdir. Ikki palatali parlament davrida siyosiy partiyalar sezilarli darajada tajriba orttirdilar, ularning mamlakatda olib borilayotgan keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlardagi ishtiroki va ta‘siri tobora ortib bormoqda. Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari parlamentda fraksiyalararo siyosiy kurash olib borish tajribasini tobora o‘zlashtirish barobarida o‘z faoliyatlarini kundan-kunga jonlantirmoqdalar. Bu o‘z o‘zidan siyosiy partiyalarning nufuzini oshirish bilan birga, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining sifatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu o‘rinda targ‘ibot va tashviqotning o‘rni katta bo‘lmoqda. Bugungi kunda fraksiyalarning faoliyatini, deputatlarning sa‘y-harakatlarini OAVlarida muntazam kuzatish mumkin. Mamlakatimizdagi hech bir tashkilot shunchalik oshkora ishlamaydi. Bu, albatta, jamoatchilik bilan aloqalarning samarasidir. Albatta, demokratik fuqarolik jamiyatini partiyasiz qurib bo‘lmaydi. Shuning uchun partiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Qonunchilik palatasiga O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 83-moddasiga asosan qonunchilik tashabbusi huquqi tartibida “ Davlat boshqaruvini

yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida’gi Konstitutsiyaviy qonuni qabul qilindi va siyosiy partiyalarning huquqiy maqomlari yanada kengaytirildi. Shu bilan siyosiy partiyalar hayotida uchinchi bosqich boshlandi desak bo‘ladi. Zero, partiyalarning vakolatini kengaytirish fuqarolar huquqini kengaytirish demakdir. Darhaqiqat, har bir partiya mamlakatimizda kechayotgan voqyealarga mas’uldir. Mamlakatimizning ichki va tashki siyosati, siyosiy g‘oyalar partiyalar orkali, ularning jamoatchilik bilan aloqalari orqali xalqqa yetkaziladi.

Siyosiy partiyalar, ularning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari hokimiyatga samarali ta’sir o‘tkaza oladigan ulug‘vor kuch hisoblanadi. 2008 yil birinchi yanvardan amalga kiritilgan Konstitutsiyaviy qonun siyosiy partiyalar hayotida yangi uchinchi bosqichni, uchinchi davrni boshlab berish bilan birga joylarda jamoatchilik bilan aloqalarni yanada kuchaytirishga katta imkoniyatlar yaratdi. Siyosiy partiyalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining targ‘ibotiga alohida e’tibor beradi. Mamlakatimiz Prezidentining nutqlari va ma’ruzalari, farmonlari va qarorlaridan kelib chiqadigan vazifalar partiya faoliyatiga dasturilamal qilib olinadi, jumladan: 2005 yilda “Milliy tiklanish”demokratik partiyasida:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish”, “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi farmonlari muhokama qilinib, ular xalq orasida keng targ‘ibot qilindi.

- “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so‘zlagan nutqidan kelib chiqadigan partiya boshlang‘ich tashkilotlari oldida turgan vazifalar”, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2005 yil 14-15 noyabrda Rossiya davlatiga qilgan rasmiy tashrifi”ga oid “Ittifoqchilik o‘zaro hamkorlikning oliy darajasidir” mavzusi to‘g‘risida masalalar ko‘rib chiqildi va boshlang‘ich tashkilotlarga targ‘ib-tashviq qilish uchun yo‘llanmalar berildi.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi va 2006 yil “Homiylar va shifokorlar yili”da o‘tkaziladigan tadbirlar dasturi muxokama qilindi.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kamolot” yoshlar ijtimoiy xarakatini qo‘llab – quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida”gi qaroridan kelib chiqadigan vazifalar belgilab olindi. Yoshlar o‘rtasida keng targ‘ibot ishlari olib borildi.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunining loyihasi “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida” va O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89 – moddasiga, 93 – moddasining 15 – bandiga, 102 – moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlar loyihalari jamoatchilik o‘rtasida keng muhokama qilindi.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi “O‘zbekiston Xotin – qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab – quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni yuzasidan joylarda yig‘ilishlar o‘tkazildi.

O‘tkazilayotgan tadbirlar natijasida partiyalarning obro‘yi yil sayin oshib bormoqda, partiyalarni halqimiz ham, mahalliy xokimiyat ham tan olmoqda. Bu jamoatchilik bilan aloqalarning samarali natijasidir. Kishilarning qalbiga chuqurroq kirib borish, partiyaning ta'sirchanligini, mavqeyi va salohiyatini oshirish omillaridan biri ya'ni jamoatchilik bilan aloqalarni keng yo‘lga qo‘yishning yana bir imkoniyati tadbirlar samaradorligini oshirish ekanligini partiyalar yaxshi biladi. Bu borada siyosiy partiyalar sezilarli darajada tajriba ortirdilar, ularning mamlakatda olib borilayotgan keng ko‘lamli demokratik

o'zgarishlardagi ishtiroki va ta'siri tobora ortib bormoqda. Siyosiy partiyalar va ularning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari qonunlar loyihalarini umumxalq muhokamasiga chiqarish uchun matbuotda e'lon qilingan dastlabki kunlardan oq, o'zlarining alohida rejalarini ishlab chiqadilar. Siyosiy partiyalarning aynan qonunlar loyihalari muhokamalariga bag'ishlangan navbatdan tashqari plenumlari, kengaytirilgan faollar yig'ilishlarini o'tkazgani, bunday plenumlar va faollar yig'ilishlari partiyalarning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar kengashlarida ham alohida ko'tarinki ruhda davom ettirilgani maqtovga loyiq. Mazkur tadbirlar rejasida qonunlar loyihalarining mohiyati va mazmunini saylovchilarga yetkazish, ularni o'rganish hamda muhokama qilishga bag'ishlangan o'quv seminarlari, uchrashuvlari o'tkazish, konferensiyalar va seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish, ommaviy axborot vositalari orqali keng ko'lamli tushuntirish ishlari olib borish belgilangan edi. Qariyb uch oy davom etgan umumxalq muhokamalari davrida, Qonunchilik palatasining qo'mitalari bilan birga siyosiy partiyalar fraksiyalari hamda bevosita deputatlar ishtirokida 30 dan ortiq konferensiya, seminar va davra suhbatlari o'tkazildi. Bu tadbirlarda qonun loyihalarining mazmuni va mohiyati, dolzarbligi, jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, shuningdek davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida atroflicha fikrlar bildirildi.

Qonunchilik palatasi deputatlari-fraksiya a'zolari qonunlar loyihalari muhokamasi yuzasidan o'z saylovchilari huzurida 273 marta uchrashuvlar o'tkazgan bo'lsa, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarida bunday uchrashuvlar 240 marotaba tashkil etildi. Ular tomonidan markaziy matbuot nashrlarida, televidenie va radio eshtirishlarida 87 marotaba, mahalliy ommaviy axborot vositalarida esa 22 marotaba muloqotlar va maqolalar chop etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari, tuman va shaharlar hokimlari ishtirokida bo'lib o'tgan mintaqaviy

seminarlarda Qonunchilik palatasining ayrim deputatlari ayniqsa partiyalar rahbarlarining mazkur qonun loyihalari muhokamasiga bag'ishlangan ma'ruzalar bilan chiqishlari seminar mashg'ulotlarini yanada mazmunli o'tishiga sabab bo'ldi. Respublika oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalari tomonidan bevosita huquqshunos olimlar, siyosatshunoslar, professor-o'qituvchilar ishtirokida tashkil etilgan tadbirlar, jamoat tashkilotlaridagi, mahallalardagi turli xildagi tadbirlar qonun hujjatlarining asl mazmun-mohiyatini keng aholiga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etdi. Qonun hujjatlarini mazmuni va mohiyatiga bag'ishlangan turli maqolalar, muloqotlar va suhbatlar respublikamiz ommaviy axborot vositalari tomonidan juda keng ko'lamda yoritib borilgani ularni eng chekka qishloqlarda yashayotgan aholining turli qatlamlari o'rtasida qizg'in muhokama qilishga imkon berdi. Fikrimizga birgina, respublikadagi mavjud 100 ga yaqin gazeta va jurnallarda aynan qonun loyihalari muhokamasi yuzasidan chop etilgan 500 dan ortiq maqolalar, O'zbekiston televideniesi va radiosining ushbu mavzuni yoritishga bag'ishlangan 84 marotaba ko'rsatuv va radio eshtirishlari, mahalliy ommaviy axborot vositalarida 50 dan ortiq shu kabi tadbirlarni tashkil etilishi respublikamiz ommaviy axborot vositalarini ham qonun loyihlarining targ'iboti borasida olib borgan ishlari salmoqli bo'ldi deyishga asos bo'ladi. Bularning barida fraksiya a'zolarining ishtiroki, faolligi bor, albatta.

### **3.2. Siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyasini qo'llash istiqbollari**

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida taraqqiy etgan millatlar, xalqlar, davlatlar orasida teng huquqli munosib o'rinni egallashga intilar ekan partiyalarning barcha sa'y-harakatlari milliy istiqbol mafkurasi, milliy tiklanish g'oyasi, milliy qadriyatlar va urf-odatlarimizga tayanish lozimligi va jamoatchilik bilan aloqalarning bu vazifalarni amalga oshirishda o'rni beqiyosligiga alohida e'tibor qaratmoqliklari lozim. O'rni kelganda shuni alohida ta'kidlash joizki, partiyalarning bosh maqsadlaridan biri, mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib joy olishiga, har qanday rivojlangan davlatdan kam

bo'lmaydigan mamlakat bo'lishi uchun amaliy hissa qo'shishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov «Bugungi ijtimoiy taraqqiyot informatsion inqilob, globallashuv jarayonlari jahon maydonlarini ta'sir o'tkazish maqsadida bo'lib olishga intilish, bu maydonlardagi o'zaro kurash sharoitida mafkuraviy siyosatning ahamiyati va o'rnini naqadar ortib borayotganini tushuntirib o'tirishga hojat yo'q. ...Eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo'lgan bo'shliqni yangi-milliy g'oya, istiqloq mafkurasi bilan to'ldirishning zarurati barchamizga ayon bo'lishi darkor.»<sup>1</sup> - degan edi.

Huquqiy davlat, adolatli, demokratik jamiyat barpo qilayotgan o'zbek xalqi o'zining ana shu ulug' niyat va maqsadlarini, buyuk orzu va umidlarini milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi orqali ifoda etmoqda. Halqimizning boy tarixiy tajribasi va zamonaviy yutuqlariga asoslangan mafkuramizning asosini esa milliy tiklanish g'oyasi tashkil qiladi. Demak, hayotimizda tobora mustahkam joy olayotgan mafkuramizning milliy istiqloq, milliy tiklanish mafkurasi deb atalishida chuqur hayotiy haqiqat mujassam. Zero, o'zbek xalqi demokratik jamiyat barpo qilish, zamonaviy bilimlarga ega millatning yangi avlodini shakllantirish orqali o'z qaddini rostdashga, o'zini anglashga intiladi, o'zi uchun munosib turmush sharoiti bunyod etadi. Milliy mafkura haqida gapirganimizda, partiyalar dasturiy maqsadlarida ham muqaddas an'analarimizni asrash xalkimizning ko'p asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, qadriyatlarini zamon talablari asosida yoshlarimiz ongiga singdirishdek vazifalar qamrab olganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ushbu targ'ibotni yanada kuchaytirish niyatida har bir partiya qoshida yoshlar va ayollar qanoti ishlab turibdi. Ularni yoshlar va ayollar o'rtasida faoliyat yurituvchi piarmentlar desa bo'ladi.

Siyosiy partiyalar o'zlarining bosh siyosiy maqsadlaridan hamda elektorati manfaatlaridan kelib chiqib turli xil g'oyalarni ilgari suradi. Bizning nazarimizda har qanday siyosat zamirida Vatan, Xalq, Millat manfaatlarini yotadi.

Partiyalar vatan taqdiri va istiqboli, erkinlik, qonuniylik, hurriyat va milliy g'oya uchun kurashishni o'zining asosiy maqsadi deb biladi. Partiyalarning har bir

---

<sup>1</sup> Karimov I.A.. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulimiz. 9-jild. -T.: O'zbekiston. 2001. -B. 223.

tadbiridan bu ruhiyatni his qilamiz. Zero, partiyalar birinchi o‘zak - boshlang‘ich tashkilotlar orqali xalq ichiga tez va dadil kirib boradi. Bu mamlakatimiz siyosiy partiyalarining milliyligini ham ifoda etadi. Shuningdek, partiyalarning jamoatchilik bilan aloqalari saylov jarayonida yanada faollashadi. Chunki, partiyalarga xalq oldida o‘zligini namoyon etadigan minbar yaratiladi va partiya a‘zolari turli xil siyosiy-huquqiy qarashlariga ega bo‘lgan siyosiy partiyalarning bahs-munozaralari kechadigan maydonning faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida ushbu faoliyat partiyadan va deputatlikka nomzodlardan katta mas’uliyat, mahorat va bahs odobiga rioya etishni talab etadi. Ushbu davrda partiyalar mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilm-fan, ma’naviyat va ma’rifatni taraqqiy toptirish, bir qator ijtimoiy muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish borasidagi mamlakatimizda amalga oshirilgan ulug‘vor islohotlarning faol ishtirokchisiga aylandi. U ilm-fan namoyandalarining, ta’lim-tarbiya sohasi xodimlarining, ijodkor ziyolilarning, tadbirkorlarning, bir so‘z bilan aytganda vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shish orzusida bo‘lgan juda ko‘plab hamyurtlarimizni o‘z atrofida jipslashtirdi.

Jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarning mazmunini faqat muayyan ijtimoiy hodisa yoki sub'ekt haqida ma'lumotni yetkazish mexanizmigina emas balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi bo'lishi ham lozim. Jumladan, jamiyat a'zolarini mafkuraviy tahdidlardan asrash, mafkuraviy tahdidlarni amalga oshirishdagi, ikkinchisi - turli yot va begona g'oyalarning tarqalishiga qarshi kurash jarayonida ishtirok etishi ahamiyatlidir. Shunga ko'ra, ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi jamoatchilik fikrini uyg'otish, shakllantirish va ularni muayyan manfaatlar asosida maqsadli yo'naltirishdan iborat. M. Bekmurodov fikricha, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy fikr sub'ektlariga ko'rsatadigan ta'siri odatda ikki yo'nalishda, ya'ni jamoatchilik fikrining boshlanishi, shakllanishi jarayonida va uning bevosita amal qilish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Shakllantirish bosqichida jamoatchilik fikrini ijtimoiy hayotning dolzarb masalalariga keng va aktiv jalb etishga qaratilsa, amal qilish jarayonlarida jamoatchilik fikrini barqaror saqlab turish va uning

ta'sirchanligini har tomonlama oshirishga jiddiy e'tibor qaratiladi.<sup>1</sup> Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa muammolarning oldini olish uchun keng ommani va tegishli davlat idoralarini jalb qilish, jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish kuchiga ega. Ayni ana shu qudratli kuchdan foydalanish esa siyosiy partiyalarning jamoatchilik oldidagi mavqeyi oshishi bilan bir qatorda jamiyat va davlat oldidagi muayyan vazifalarini bajarishida asosiy qadam bo'ladi. Shu orqali ommaviy axborot vositalari haqiqatni ommaga yetkazadi, natijada jamiyat tasavvurida turli noxolis ma'lumotlarga, yolg'on fikrlarga, bo'hton, shubha va ishonchsizlikka o'rin qolmaydi. Bu esa avvalo, mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda, qolaversa, aholimizning to'g'ri va xolis axborot iste'mol qilishi orqali milliy g'oyaning mustahkamlanishi uchun muhim omil bo'ladi. Shuningdek, siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo'llashning istiqbollari haqida so'z yuritganda, partiya Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi partiya fraksiyasi a'zolari va mahalliy kengashlari tarkibidagi deputatlik guruxi a'zolarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu borada bugunga qadar O'zbekiston partiyalari faoliyatini kuzatsak bunday jarayon Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati, O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi faoliyatida uchraydi. Jumladan, O'zLiDeP mahalliy vakillik organlaridagi O'zLiDeP deputatlik guruhlarini faoliyatini jonlashtirish va fraksiya bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalariga alohida e'tibor beradi. Zero xalq ichiga kirishning eng maqbul yo'llaridan biri shudir. Qonunchilik palatasi xalq ichiga poytaxtning ruhiyatini olib kirsam, mahalliy vakillik organlari deputatlari mahalliy sharoitni yaxshi biladi va tashviqot yanada samarali bo'ladi. Shuningdek, ba'zi partiyalarda deputatlik guruhlarini bo'lmagan bir paytda ularning har bir tuman, viloyatda deputatlik guruhlarini mavjud bo'lib, ushbu kuchdan ular samarali foydalanishadi. «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonuniga muvofiq va partiyaning dasturiy ko'rsatmalarini yanada

---

<sup>1</sup> Bekmurodov M. O'zbekistonda jamoatchilik fikri. - T.: Fan, 1999. -B. 170.

chuqurlashtirish, partiya mafkurasini rivojlantirish va g'oyalarini xalq orasida keng targ'ib qilish bo'yicha 2008-2009 yillarga mo'ljallangan Harakat dasturi ishlab chiqildi. Partiya fraksiyasi tomonidan bu borada tuzilgan ishchi guruhi mahalliy deputatlik guruhlarini ma'lumotlar va tegishli materiallar bilan ta'minlashda amaliy yordam ko'rsatdi. Hamkorlikda turkum tadbirlar uyushtirildi. Bunday tajriba nafaqat joylardagi deputatlarning, balki partiya quyi tashkilotlari faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shunday hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlar-seminar, konferensiya, davra suhbatlari va saylovchilar bilan uchrashuvlar boshlang'ich partiya tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, xususan joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni partiyaviy vositalar yordamida hal etish maqsadida davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, partiya elektoratining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda partiya fraksiyasi rolini oshirishning yo'llari va imkoniyatlarini ishga solish, joylardagi kuch va imkoniyatlarini yana bir karra baholab, tahlil etish masalalari borasidan ham samarali bo'ldi. O'zLiDePning mahalliy deputatlik guruhlari faoliyatini jonlashtirish va fraksiya bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish yo'llari kuchayganligi pirovard natijada jamoatchilikka bo'lgan ta'sirini yanada oshirdi. Shuningdek fraksiyadagi ishchi guruhi Prezident Islom Karimovning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar to'g'risida" Farmoniga muvofiq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar rejasini ishlab chiqdi. O'zLiDePning mahalliy deputatlik guruhlari bilan hamkorlikda joylarda qator tadbirlar o'tkazildi. Masalan, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining akademik litseyi o'quvchilari O'zLiDeP fraksiyasi deputatlari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin qo'shilgan birinchi xalqaro huquqiy hujjat bo'lganligi ta'kidlandi. Shu asnoda mamlakatimiz insonparvarlik va erksevarlik g'oyalariga sodiq ekanligini namoyish etdi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga deklaratsiyaning yetakchi normalari singdirilganligi, bizning davlatimizda inson, uning sha'ni va qadr-

qimmatini, huquqlari va erkinliklari oliy qadriyatlar sifatida e'tirof etilganligi litsey o'quvchilariga batafsil tanishtirildi. Uchrashuvda mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan, shu jumladan yosh avlodga ta'lim berish va uni tarbiyalash masalalari ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan keng miqyosdagi ishlarning muhimligi ta'kidlab o'tildi. «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabuli qilinishi bunga yorqin misol bo'lib, unda farzandlarimizning huquqlari va manfaatlari, erkinliklari, ularning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlari uchun qonunchilik bazasi belgilab berilganligi, aholining aksariyat qismini yoshlar tashkil etadigan mamlakatimizda o'sib kelayotgan avlodning manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor berilayotganligi, yosh avlodni intellektual, jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash, yoshlarning eng yaxshi jahon standartlari asosida ta'lim olishi, o'smirlar va qizlarda eng yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlab, ularning qobiliyati va iste'dodi to'la namoyon bo'lishi uchun har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida barcha shart-sharoitlar yaratilganligi qayd etildi. Fraksiya tomonidan 2006 yilda o'tkazilgan 180 dan ziyod konferensiya, seminar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarda qonunlar loyihalarining konsepsiyalari muhokama qilindi. Tadbirlarda ishlab chiqilgan va joylarga yo'llangan tavsiyalar fuqarolarning huquqiy va siyosiy madaniyati muayyan darajada o'sishiga ko'maklashdi. Bularning bari fraksiyalar sa'y harakati tufaylidir. Bularning barchasi deputatlarni jamoatchilik bilan muntazam aloqa qilishini, tegishli organlar vakillari, mutaxassislar bilan doimiy munosabatda bo'lib, ular bilan tajriba almashishini, fikr-mulohazasini o'rganishlarini, shuningdek xalq o'rtasida yurib, muammolarini tahlil etishini, fuqarolar orasida keng tushuntirish ishlarini olib borishlarini ifodalab turibdi. Partiyaning jamoatchilik bilan aloqalariga sarflagan mablag'iga qarab ham bu boradagi samarali ishlarni anglash mumkin. Birgina 2008 yilda partiya o'z faollarini o'qitish va seminarlar o'tkazishga 10,4; konferensiya va qurultoylar o'tkazishga 40,2; targ'ibot va tashviqot xarajatlariga 15,3; matbuot organiga yordam ko'rsatishga 50,0 million mablag' sarflagan. Bu mablag'larning bari jamoatchilik bilan

aloqalarga sarflangandir. Bu mablag‘lar faqat davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobigadir. Bundan tashqari homiylardan kelib tushgan mablag‘lar hisobiga ham tashviqot va targ‘ibot ishlarini yuritgan. Siyosiy partiyaning moliyaviy xarajatlariga e‘tibor berilsa ham, faoliyati jamoatchilik bilan aloqalardan iborat ekanligini anglash mumkin.

Siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llash masalasida ahamiyat berish lozim bo‘lgan yana bir jihat shundan iboratki, jamiyat hayotida muhim siyosiy voqyeiylik bo‘lgan saylovlar jarayonida emas, balki saylovlar orasidagi faoliyat kelgusi saylov davri uchun targ‘ibot-tashviqot vazifasini o‘tashi uchun jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llash katta ahamiyatga egadir.

## **Xulosa**

O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, fuqarolarning siyosiy faolligini yanada oshirish, siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni va rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar siyosiy partiyalar oldiga yangidan-yangi vazifalar qo‘ymoqda. Ushbu vazifalar haqida gapirganda, bugungi global dunyo shakl-shamoyilida sodir bo‘layotgan keskin o‘zgarishlarni ham e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Hozir davlatlar o‘rtasida chegaralar va to‘siqlar chekinib borayotganligi, pul, tovar va xizmatlarning erkin harakati, migratsiya jarayonlari xalqaro miqyosda kuchayib borayotganligi xususida ko‘p gapirilmoqda. Ayniqsa, dunyoda yagona axborot makonining paydo bo‘lganligi hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan internet xizmati juda kuchayib ketganligi-kun tartibiga milliy, mafkuraviy va axborot xavfsizligini qo‘ymoqda. Mana shu jarayonlarni kuzatar ekanmiz, ulug‘vor tarixga, betakror madaniyatga, yuksak ma‘naviyatga ega xalqimizning o‘zligini ko‘z qorachig‘idek asrash har bir siyosiy partiyaning jamoatchilik bilan aloqalarga e‘tiborni kuchaytirayotganining ifodasidir. “Agar jamoatchilik fikri qarshi bo‘lsa, hech bir ishda yutuqqa erishib bo‘lmaydi. Jamoatchilik qo‘llab-quvvatlagan hech bir harakat besamar ketmaydi”, - degan ekan Avraam Linkoln. Bu ayni haqiqatdir.

O‘zbekiston Respublikasida ham xalq fikriga azal-azaldan alohida e‘tibor berib kelingan. O‘zbek xalqining “Xalq so‘zi – haq so‘zi” iborasi ham jamoatchilik fikriga keng e‘tibor berish kerakligini ifodalaydi. Demak, xalq fikriga ajdodlarimiz katta ahamiyat berishgan. Jumladan, Xayriddin Sultonning “Boburnoma” asaridagi tafsilotga e‘tibor beraylik. Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur Hiindistonga yurishdan oldin mamlakatning barcha ulomayu fuzalolarini yig‘ib, kengashib, fikrlarini o‘rganadi. So‘ngra ish boshlaydi. Bunda vaziyatni o‘rganib, tahlil qilib, kengashib, so‘ng ish boshlash – ma‘lum ma‘noda jamoatchilik bilan aloqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini eslatadi. Siyosiy partiyalar jamoatchilik

bilan aloqalarini kengroq yo'lga qo'yishda birinchi navbatda partiyaning eng nufuzli qatlami bo'lmish parlament faoliyatida ishtirok etuvchi deputatlariga suyanadi. Chunki, ularning ko'lami partiya nufuzini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Yana shuni ham hisobga olish lozimki, deputatlarning saylovchilar bilan uchrashib hisob berib turishi qonunlarda belgilangan. Ana shu imkoniyatdan partiyalar samarali foydalanadi. Umuman, ta'bir joiz bo'lsa, siyosiy partiyalarning maqsad-muddaosi xalq ichiga kirish, jamoatchilikning hurmat - e'tiborini qozonib, o'z maqsad va g'oyalarini singdirishdir. Partiyalar qonun ijodkorligi, saylovchilar bilan uchrashuvlar, tadbirlar o'tkazish orqali jamoatchilik bilan munosabatlarni mustahkamlaydi. Siyosiy partiyalar faoliyatida ommaviy axborot vositalarining yo'lga qo'yilishi bu partiya g'oyalarini xalq orasida targ'ib qilishning eng samarali usullaridan birini o'zida ifoda etib, unda partiya hayoti, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni aks ettirilishi va boshqa jamiyat a'zolarini axborot ehtiyojlarini qondiruvchi boshqa ma'lumotlarni berilishi bu oddiy xalqning partiya atrofiga jipslashi va bu faoliyatga qiziqishi ortishiga olib keladi. Siyosiy partiyalar hayotiga internet saytlarini kirib kelishi siyosiy partiyalarning jamoatchilik bilan aloqalarining mustahkamlanishining yangi davrini boshlab berdi.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarini qo'llashda qator tamoyillarga tayanish talab etiladi: axborotning haqqoniyligi; muloqotda har ikki tarafning manfaatlari bilan hisoblashish; jamoatchilik fikrini hurmat qilish va unga tayanish. «Jamoatchilik bilan aloqalar» - boshqaruvning alohida vazifasi bo'lib, aholining manfaat-ehtiyojlari asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish, demokratik islohotlarga jamoatchilikni safarbar qilish, jamiyatda vujudga keladigan noxush holatlardan ogoh qilish orqali ularning oldini olishga xizmat qiladi.

Davlatning demokratik tabiatini belgilab beradigan muhim omillardan yana biri - aholining axborotga bo'lgan ehtiyojining qay darajada qondirilganidir. Fuqarolar siyosiy partiyalarning qanday ishlayotganini bilishlari, umumiy faoliyatidan xabardor bo'lishlari, davlat boshqaruvida ishtirok etishlari uchun yetarli darajada siyosiy savodxon bo'lishlari kerak. “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari fuqarolarning savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatib, ularning

siyosiy madaniyatini yuksaltirish, insonlar ongida demokratik qadriyatlarni qaror toptirish orqali demokratik islohotlarning jadallashuviga ko‘maklashadi.

O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar faoliyatida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining keng qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Zero, hokimiyat uchun kurashda partiyalar uchun aholining qo‘llab-quvvatlashiga erishish, saylovchilarning ko‘proq ovozlari olish muhimdir. Bu esa partiyalardan aholi bilan doimiy muloqotda bo‘lishni, o‘z tarafdorlari va xayrixohlari safini muntazam kengaytirib borishni talab etadi.

**Yuqorida siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llashning ahamiyatini tadqiq qilish va mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishish natijasida quyidagilar tavsiya etiladi:**

Siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etuvchi shaxslarni o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonida jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalariga oid bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim;

Siyosiy partiya faoliyatida aholining barcha qatlamiga kirib borishni ta'minlash maqsadida barcha partiya a'zolarini siyosiy partiyaning ko'krak nishoni yoki boshqa yorlig'i bilan ta'minlash zarur. Shu orqali aholi o'rtasida siyosiy partiyaga nisbatan ilk tasavvurlar shakllanadi;

Siyosiy partiyalar faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatini yo‘lga qo‘yishda siyosiy partiyaning eletar imidji sifatida Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyasi a'zolariga tayanish, targ‘ibot va tashviqot ishida Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va mahalliy Kengash deputatlarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash zarur;

Siyosiy partiyalarning internet saytlari va bosma nashrlari orqali jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini yo‘lga qo‘yish jarayonida axborot almashinuv, aks aloqa tizimini ta'minlash zarur;

Siyosiy partiyaning jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalaridan faqat saylovoldi jarayonlardagina emas, balki muntazam ravishda partiyaning mafkuraviy bo‘limi faoliyatining mazmuniga aylantirish lozim;

Siyosiy partiyaning saylovoldi platformasida targ‘ibotning turli mexanizmlari, jumladan, “Har bir xonadonga bir tashrif” ya'ni nomzod haqidagi axborotni turli vositalar: pochta orqali, elektron xabar yuborish, turli afisha va e'lonlar orqali har bir xonadonga kirib borishini ta'minlash va aynan ana shu faoliyatni nomzodning shaxsiy tashrifi asosida tashkil etish saylovchi va nomzod o‘rtasidagi axborot almashinuv muhitini shakllantirish zarur. Shundagina nomzod vositasida siyosiy partiyaning aholi o‘rtasidagi imidji shakllanadi va saylov samarali kechadi.

Mazkur texnologiyalar elektoral mayllar va saylov okruglaridagi ahvolni o‘rganishda, saylov kampaniyasini axborot bilan ta'minlashda, saylovchilar bilan muloqot o‘rnatishda, raqib kuchlar harakatlari monitoringini olib borishda, nomzod imidjini shakllantirishda, partiyaning saylovoldi dasturini saylovchilarga yetkazishda, dasturiy maqsadlarni amalga oshirish jarayonida qo‘l kelishi mumkin.

Siyosiy partiyaning saylov kundan keyingi birinchi kundan boshlab keyingi saylovga qadar jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llagan holda saylovoldi targ‘ibot ishi mazmunini tashkil etishi lozim. Shundagina aholi o‘rtasida siyosiy partiyaning faoliyati faqat saylov jarayonlari uchun emas, balki xalq ehtiyoji va manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilayotganini namoyon etadi va partiya tarafdorlarini ortishiga hizmat qiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va huquqiy normalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2012.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti. 6-bob, 62-modda, 8-bandi.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi. 2006 yil 2-son.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari**

4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch-T.: Ma'naviyat, 2008. 2008.
5. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: O'zbekiston, 2003. T.11.
6. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. - T.: O'zbekiston, 2005.
7. Karimov I.A. Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari. - T.: Sharq, 1998.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz.-T.: O'zbekiston,2000.
9. Karimov I.A.. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. T.: O'zbekiston. 2001.
10. Karimov.I.A.,Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.6-jild.-T.: O'zbekiston, 1998.
11. Karimov.I.A.,O'zbek halqi hyech qachon,hyech kimga qaram bo'lmaydi.13-jild.-T.: O'zbekiston,2005.
12. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi.// Xalq so'zi, 2011 yil. 22 yanvar .
13. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutqi.// O'zbekiston ovozi, 2010 yil 1 sentyabr.

14. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo`lini izchil davom ettirish- taraqqiyotimizning muhim omilidir.// Ishonch. 2010-yil 8-dekabr.

### III. Asosiy adabiyotlar

15. Dewey John. The Public and its Problems. - N.Y.: 1927. - P.15-17.
16. Habermas J. The Theory of Communicative Action. – L: 1984. - R.150.
17. Harwood L.Childs. An Introduction to Public Oppinion. - NY.: John Wiley and sons, 1940. – R. 13.
18. Абдеев Р.Ф. Философия информатсионной сивилизатсии.-М.:МГУ, 1994;
19. Аги У., Кемерон Г., Олт Ф., Уилкоккс Д. Самое главное в ПР / Пер.с англ. - СПб.: Питер, 2004. - С. 29.
20. Ал-Бухари М. Общественные отношения и международный информатсионный обмен. - Т.: ТашГИВ, 2001;
21. Ал-Бухари М. Проблемы международного обмена информатсией в условиях современных международных отношениях.-Т.:ТашГИВ, 2004;
22. Alimardonov T. Mafkura va ijtimoiy axloq uyg'unligi // Tarix, mustaqillik va milliy g'oya: Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Т.: Akademiya, 2000;
23. Alimova D. Insoniyat tarixi g'oya va mafkuralar tarixidir. Т.: Ijod dunyosi, 2002;
24. Аристотел. Политика. Афинская полития: Предислов. Е.И.Темнова. - М.: Мысл, 1997.
25. Афанасев В.Г. Общество: системност, познание, управление. - М.: Политиздат, 1993.
26. Bekmurodov M. Movaraunnaxrda jamoatchilik fikri - Т.: Fan, 1994;
27. Bekmurodov M. O'zbekistonda jamoatchilik fikri. - Т.: Fan, 1999;
28. Буари Ф. Паблик рилейшнз или стратегия доверия. - М.: Имидж-Контакт, Инфра-М, 2001.
29. G'afforov N. Jamoatchilik bilan ishlash-pablik rileyshnz. - Т.: Zarqalam, 2004;

30. Жумаев Р. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. - Т.: Шарқ, 1995;
31. Илясов Ф. Политический маркетинг: искусство и наука побеждают на выборах. - М.: ИМА-Пресс, 2000.
32. Islombekov U.I. Siyosatda «jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari (O‘zbekiston Respublikasi misolida) mavzusidagi siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi.-Toshkent. 2007.,
33. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. - Т.: Yangi asr avlodi, 2006.
34. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. - Т.: Sharq, 1998.
35. Korolko V. Osnovy pablik rileyshnz. - Kiev.: Vakler, 2001.
36. Qudratxo‘jayev Sh.T. O‘zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari: 23.00.02 – «Siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar» ixtisosligi bo‘yicha siyosiy fanlar nomzodi darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Т.: DJQA. 2004.
37. Quronov M. Mafkura, ta'sirchanlik va uslub. - Т.: Ma'naviyat, 2000;
38. Мўминов Ф.Паблик рилейшнз:история и теория.-Т.:Ижод дунёси, 2004.
39. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk. - Т.: Adolat, 1997.
40. Нисневич Ю.А. Информатсия и власт. - М.: Интер-пресс, 2000.
41. Nosirov O‘. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishidir. - Т.: O‘zbekiston, 1998.
42. Ochildiyev A. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.-Т.:Ijod dunyosi,2002.
43. Paxrutdinov Sh. Tahdid – halokatli kuch. - Т.: Akademiya, 2001.
44. Платон. Диалоги: пер с древнегреч. /Худож.-оформител Б.Ф. Бублик, - Харьков: Фолио, 1999.
45. Политология: энциклопедический словарь /общ.ред. и сост.: Ю.И.Аверьянов. - М.: Изд-во. Моск. коммерч. Ун-та, 1993.

46. Почепсов Г. Паблик рилейшнз для профессионалов. - М.: Рефл-бук, Ваклер, 1999.
47. Почепсов Г.Г. Паблик рилейшнз для профессионалов. - М.: Рефл-бук, Ваклер, 1999.
48. S. Fuqarolik jamiyati tarixiga bir nazar. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. - T.: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2003;
49. Связи с общественностью в политике и государственном управлении / Под общ.ред. В.С Комаровского. -М.: РАГС, 2001.
50. Соловёв А. Политология, политическая теория, политические технологии. - М.:Аспект-Пресс, 2000. -
51. Sultanova E. Siyosiy marketing asoslari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2001;
52. Temur tuzuklari: forschadan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarj. So‘zboshi va izohlar B.Ahmedovniki. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1996. - B. 15.
53. Tojiyev X. Milliy mafkuraning nazariy va metodologik masalalari. – T.: Mehnat, 1999;
54. Тоффлер Э. Метаморфозы власти. - М.: Издательство АСТ, 2004. - С. 22.
55. Тузиков А. Масс медиа: идеология видимая и невидимая // ПолиС. – М.: 2002, - № 2;
56. То‘rayev В., Abdullayev J. Ommaviy axborot vositalari: fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti sifatida // O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish: muammolar va yechimlar: Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: TDYuI,2004;
57. Umarova N. Globalashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurash. - T.: “Akademiya”, 2005;
58. Umarova N., Islombekov U. Milliy g‘oya targ‘ibotining ta'sirchanligini oshirishda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish. - T.: Akademiya, 2005;

59. Чумиков А. Паблик рилейшнз - связи с общественностью. - М.: Дело, 2000.
60. Ergashev I. Milliy g'oya va fuqarolik jamiyati. - T.: Akademiya, 2005.
61. Ergashev I., Xudoyberdiyev X., Qahramonov A. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. - T.: Ijod dunyosi, 2002.
62. Erkayev A. Milliy g'oya mohiyati. - T.: Ma'naviyat, 2000.
63. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot- T.: Ma'naviyat, 2009.

#### **VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar**

64. Abduazizova N. Ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish // Jamiyat va boshqaruv. - T.: 2005, - № 2;
65. Azizxo'jayev A. Diniy ekstremizm – mafkuralar kurashi // Jamiyat va boshqaruv. – T.: 1998. - № 3;
66. Атамирзаев А. Общественное мнение – барометр гражданского общества // Фуқаролик жамияти. – Т.: 2004. - № 1;
67. G'afurov K. Public Relatoins - munosabatlar texnologiyasi // Jamiyat va boshqaruv. –T.: 1998. - № 3;
68. Do'stmuhammedov X. Axborot tahdidi serqirra muammo // Huquq va burch. - T.: 2006. - № 1;
69. Jabborov S. Qonunchilik tashabbusi – yuksak ma'suliyat //Xalq so'zi gazetasi. 2006 yil 20 aprel.
70. Jumayev A.Qonunchilik palatasining nazorat-tahlil faoliyati//Qalqon jurnali. 2006 yil aprel.
71. Zaripova R. «Inson manfaatlari – oliy qadriyat // Xalq so'zi gazetasi. 2006 yil 26 mart.
72. Zaripova R. Axborot xafvsizligi va qonunchilik // O'zbekiston matbuoti jurnali. 2006 yil 4-son.
73. Zaripova R. Qonunchilik tashabbusi huquqi //Sog'lom avlod» gazetasi. 2006 yil 32-son.

74. Zaripova R. Milliy qonunlarimiz – yurtimiz faxri// Milliy tiklanish» gazetasi. 2006 yil 34-son.
75. Zaripova R. Siyosiy tizimni liberallashtirish //Jamiyat gazetasi. 2007 yil 9 fevral.
76. Zaripova R. Tinchlik va osoyishtalikning huquqiy kafolati//Xalq so‘zi gazetasi. 2006 yil 15 noyabr.
77. Исмоилов Н. Приобрести жиле поможет//Народное слово газетаси. 2006 йил 18 январ
78. Komilov N. Milliy mafkura zarurati // Jamiyat va boshqaruv. – T.: 1998. - № 3;
79. Qoraboyev U. Imij va imijeologiya//Jamiyat va boshqaruv.–T.:1999. № 1-2.
80. Коваленко В.И., Костин А.И. Политические идеологии: история и современность//Вестник Московского Университета.–М.: Политические науки. 2002. - № 2.
81. Komilov F. Kichik biznes va tadbirkorlik: qonunchilikdagi o‘zgarishlar //XXI asr gazetasi. 2006 yil 2 fevral.
82. Mamatov X. Barqaror demokratik taraqqiyot garovi //Adolat gazetasi. 14 sentyabr 2007 yil .
83. Mamatov X. Siyosiy islohotlarning yangi bosqichi//Xalq so‘zi gazetasi. 8 avgust 2007 yil.
84. Maxametova M.Oila - jamiyat poydevori// Sog‘lom avlod gazetasi. 2007 yil 19 aprel.
85. Мигранян А. Гражданское общество // Опыт словаря нового мышления. - М.: 50/50, 1989.
86. Rajabov F. Aholi bandligi//O‘zbekiston ovozi» gazetasi. 2006 yil 13 iyun.
87. Rajabov F. Jamiyat taraqqiyoti garovi //O‘zbekiston ovozi gazetasi. 2006 yil 12 dekabr.
88. Rajabov F. Huquqiy islohatning muhim bosqichi //O‘zbekiston ovozi gazetasi. 2006 yil 4 iyul.

89. Raximov A. Mukammal qonunlar taraqqiyotga xizmat qiladi //O‘zbekiston ovozi» gazetasi. 2006 yil 4 iyul.
90. Toshmuhamedova D. Ayol huquqi va manfaati //Adolat” gazetasi. 2 mart 2007 yil.
91. Toshmuhamedova D. Taraqqiyotning yangi bosqichi//Adolat gazetasi. 7 sentyabr 2007 yil.
92. Umarova N. Mafkura targ‘iboti // Tafakkur. –T.: 2001. - № 3;
93. Umarova N. Terror ortidagi terror // Jamiyat va boshqaruv. –T.: 2001. - № 3;
94. Halilov E. Fuqarolik murojaati va demokratik islohotlar // Jamiyat va boshqaruv. - T.: 1998. - № 1;

### **VII. Internet saytlari**

95. [www.mtdp.uz](http://www.mtdp.uz). (“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi sayti)
96. [www.uzlidep.uz](http://www.uzlidep.uz) ( O‘zLiDeP sayti )
97. [www.xdp.uz](http://www.xdp.uz) (Xalq demokratik partiyasi sayti)
98. [www.uzbekistonovozi.uz](http://www.uzbekistonovozi.uz) (Xalq demokratik partiyasi nashri “O‘zbekiston ovozi” gazetasi sayti)
99. [www.adolat.uz](http://www.adolat.uz)
100. [www.XXI-asr.uz](http://www.XXI-asr.uz) ( O‘zLiDeP nashri “XXI-asr” gazetasi sayti )